

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
УНИВЕРСИТЕТИ**

ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ

«Ҳимояга рухсат этилсин»

Факультет декани

_____ ф.ф.д., проф. И.Ж.Юлдашев

2013 йил «___» _____

5141500 - Тарих факультети « Миллий истиқлол ғояси; ҳуқуқ ва маънавият
асослари» таълим йўналиши 4-курс 401 гуруҳ талабаси

Ибрагимов Аббоснинг

“Касб – ҳунар коллежларида “Иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқлар”
мавзусини ўқитишда кейс технологиясини ташкил этиш
технологияси мавзусида ёзилган

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Илмий раҳбар: «Давлат ва ҳуқуқ
асослари» кафедраси катта ўқитувчиси

_____ п.ф.н. Н.Сайдалихаджаева

Тақризчилар:

«Давлат ва ҳуқуқ асослари» кафедраси
ўқитувчиси

_____ ю.ф.н. Ш.Авазова

Педагогика Университети қошидаги
академик лицей ўқитувчиси

_____ Ж.Тиловов

«Ҳимояга тавсия этилсин»

«Давлат ва ҳуқуқ асослари» кафедраси мудири

_____ ю.ф.н., доц Х.Н.Туйчиева

2013 й. «___» _____

ТОШКЕНТ – 2013

Mavzu: Kasb-hunar kollejlarda "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda keys texnologiyasini tashkil etish metodikasi

MUNDARIJA

Kirish.

I BOB. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqning nazariy asoslari.

1.1. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tushunchasi hamda ularning mazmun mohiyati.

1.2. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar mavzusini o'qitishning maqsad va vazifalari.

II BOB. "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari.

2.1. "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishga oid DTS, o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari hamda meyoriy huquqiy hujjatlar tahlili.

2.2. "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda keys-stadi uslubidan foydalanishning nazariy ahamiyati.

III BOB. "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusining ta'lim texnologiyasi.

3.1. "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.

3.2. "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusining texnologik xaritasi

Xulosa va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Inson hukuklari tarixdan, barcha xalqlarning turmush tarzida, an'anaviy xukukiy madaniyatida, milliy dunyokarashi va mafkurasida muxim o'rin tutgan. Inson huquqlarini to'la qaror toptirishda milliy, ma'naviy, diniy-axlokiy, xukukiy va davlatchilik tarixiy merosimizga, mafkuramiz goyalariga tayanmok kerak. Mustakil O'zbekiston inson xukuklarini xurmat kilish va ximoya kilish borasida butun dunyoda ish boshlagan va ish olib borayotgan barcha kishilarni va barcha davlatlarni juda e'zozlaydi. O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida ma'rifatparvar demokratik adolatli davlat bo'lishiga harakat kiladi, inson huquqlarini himoya qilishga va mustahkamlashga qat'iy kafolat beradi. O'zbekiston uzining boy va kup ming yillik ma'naviy, huquqiy merosiga asoslanib inson huquqlarining umuminson qadriyatlari hamda umum-etirof etgan halqaro huquq talablarini ta'minlash borasida muntazam ish olib bormoqda.

Inson huquqlari masalasi demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bulib, u davlatning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi mezon sifatida namoyon buladi. Zero, Prezidentimiz aytganidek, «Inson hukuklarini qonunda va amalda ta'minlay olmagan, buning uchun etarli kafolatlar yaratib beraolmagan jamiyat demokratik jamiyat emas»¹

Inson, uning xuquqi va erkinligi hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biridir. Inson xuquqlarini xalqaro huquqdan ajratish mumkin emas. SHuning uchun ham mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi o'zining xalqaro hamjamiyatning tarkibiy qismi sifatida barcha qonunlari, huquq me'yorlari va boshqa hujjatlarni asosan inson haq-huquqlarini himoya qilishga qaratib keldi.

Inson haq-huquqlari kafolati umumbashariyat masalasidir. Shu sabab ham dunyoda kabul qilingan va kilinayotgan barcha hujjatlar inson haq-xuquqlarini kafolatiga, fuqarolarni har tomonlama muxofaza qilishga qaratilgan va

¹ I.A.Karimov. "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" Toshkent. "Sharq", 1993 yil, 27 — bet.

qaratilmoqda. Mavzuning dolzarbligi yana shu bilan xarakterlanadiki, inson huquqlarini jamiyatdagi o'rnini demokratik davlatda inson huquqlari kafolatlari, huquqbuzarlikka qarshi kurashda inson huquqlari ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Mustakillikka erishganimizdan keyin davlatimizning inson huquqlari sohasida xalkaro hamkorligi bilan bevosita va bilvosita bog'liq bulgan munosabatlar va munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan chora tadbirlar va siyosatini uz ichiga oldi. BMTning 1948 yilgi Inson huquqlari umumjaxon Deklarasiyasi, 1966-yilgi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalkaro Pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalkaro Pakt va unga qo'shmcha fakultativ Protakol hamda boshqa huquqlarga doir jahon andozalari, O'zbekiston qonunchiligida tenglik uchun kurash, Xalkaro xavfsizlikni mustahkamlash, davlatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va teng huquqli hamkorlikni rag'batlantirish, mahalliy va mintaqaviy nizo-janjallarga yo'l qo'ymaslik, harbiy harakatlarni to'xtatish va ularni oldini olish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish, insonning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik kabi masalalarda O'zbekiston bilan hamkorligi va O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi ilmiy tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi. O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

XXI asr uchun oliy ta'lim haqidagi Butunjahon deklarasiyasida ta'kidlanganidek, "...malakali va keng ma'lumotli insonlarning tanqidiy muassasasini barpo qiluvchi adekvat oliy ta'limga va ilmiy tekshirish muassasalariga ega bo'lmay turib, birorta mamlakat real va turg'un rivojlanishini ta'minlay olmaydi".

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki, Kasb-hunar kollejlarida "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda keys texnologiyasini tashkil

etish metodikasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar va uslubiy qo'llanmalar juda kam hamda ushbu mavzuga oid bo'lgan mavjud ma'lumotlarni bir joyga jamlagan holda ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Mavzuning dolzarbligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 2012-yil 28-maydagi "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora tadbirlar to'g'risida"² Qaroriga asoslangan holda ham izohlasa bo'ladi. Shu sababdan kasb-hunar kollejlarda "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda o'quvchilarga keys-stady texnologiyasi asosida bilim bera oladigan, yuksak malakali kadrlar tayyorlash sifatini zamon talablari darajasiga ko'tarish, "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda ta'limda yangi texnologiyalarini yaratish va ularni amaliyotga joriy qilish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatini shakllantirish respublikamiz ta'lim tizimining dolzarb muammolari bo'lib qolmoqda.

Kasb-hunar kollejlardagi talim jarayoni uchun bilish ko'nikmalari, ya'ni bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmasi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. O'rta maxsus ta'lim tizimida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasin o'rganish" fanidan "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda "... axborot resurslaridan foydalanish, nazariy bilimlarni oshirish asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan o'quv harakatlari tizimlarini belgilash, o'quv faoliyatining tarkibiy qismlarini ajratish, ta'lim maqsadiga ereishish uchun imkon bo'ladigan sharoitlarni yaratish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. O'quv faoliyatini takomillashtirishda yaxlitlik va tarkibiy qismga e'tibor qaratish, istiqbol rejasiga ega bo'lish, fanlar orasida o'zaro aloqani mustahkamlash muhimdir"³.

² I. A. Karimov. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora tadbirlar to'g'risidagi Qarori. Toshkent oqshomi. №105(12.166). 2012-yil 29-may. 1-2-bet

³ B. Xakimova. Pedagogik kollejlarda ta'lim jarayonini takomillashtirish. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. 3/2008-yil. 63-bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning "2009-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010-yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yunalishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida ham yoshlarimizning eng yuksak talablar darajasida ta'lim olishi, ularning o'z qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun, jamiyatda munosib va mustahkam o'rin egallashi uchun yaxlit, uzluksiz ta'lim – tarbiya tizimini yanada rivojlantirish lozimligi alohida ta'kidlab o'tilgan.⁴

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, - «Bugungi kunning eng muhim vazifasi – hayotimizning barcha sohalarida yangicha fikrlaydigan, murakkab damlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni tarbiyalash, ularga ishonch bildirishdan iboratdir».⁵

Ma'lumki, 2001 yilgacha mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida huquq fani o'qitilmasdi. Vaholanki, huquq jamiyat a'zolarining erkinliklarini ruyobga chiqarishning muhim shartidir. Agar inson uzi yashayotgan , uzi ishlayotgan jamiyatda erkin faoliyat kursatishni istasa, u uz erkinligini boshqalarning ham erkin bulishi uchun ma'lum ma'noda chegaralashi darkor. Huddi shu holat huquqiy munosabatlarning namoyon bulishidir.⁶ Inson huquqlari hech bir tusiqlik bilan cheklanmasligi zarur bulgan buyuk insoniy qadriyatdir. Huddi shuning uchun ham inson huquqlari xozirgi zamon konstitusiyaviy huquqlarinig eng muhim tarkibiy qismidir.⁷

Inson huquqlari tan olinmagan jamiyatda huquqning o'zi bo'lishi mumkin emas. Huquqning ma'nosi va ahamiyatini mana shunday tushunish va tasavvur qilish

⁴ K.I. Axmetova, D.M. Fayzullaeva, D.P.Xoshimova. Innovasion ta'lim texnologiyalar. T – 2011. 8-bet

⁵«Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohat va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2009 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

⁶A.Choriev.Inson falsafasi. II Mustaqil shaxs. T-2002y. 171-bet

⁷A.S.Saidov. Mustaqillik qomusi va inson huquqlari. Muloqot,1999. № 6. 8-bet

demokratik jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotining fundamental asoslarini tashkil qiladi va qonunlarda mustahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning keng doiradagi shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Bular hozirgi zamon jahon andozalariga, rivojlangan demokratik mamlakatlarning konstitutsiyaviy talablariga mosdir.⁸

Ta'lim sohasidagi islohotlarning mohiyatini to'laqonli namoyon etuvchi O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" bu borada olib borilayotgan harakatlarning metodologik asosi sifatida bir qator muhim yo'nalishlarni belgilab berdi. Ushbu me'yoriy hujjatlar mazmuniga ko'ra ta'lim tizimini isloh qilish O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb e'tirof etildi hamda uzluksiz ta'lim tizimini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi. Shu bilan birga maktab kasb-hunar kollejlari huquqiy ta'lim samaradorligini oshirishga dolzarb pedagogik muammo sifatida qarash lozim. Bu o'rinda "*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish*" fanidan "*Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar*" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilar oldida ta'lim, jumladan huquqiy ta'lim bo'yicha ikkita savol - "nimani o'qitish?" va "qanday o'qitish?" paydo bo'lmoqda. Muammo huquqiy ta'lim samaradorligini qanday qilib oshirishdadir. Bu maqsadlarga erishish uchun huquqiy ta'lim jarayonini tashkillashtirishga an'anaviy yondashuvlarni jiddiy o'zgartirish zarurligi shubhasizdir. Chunki huquqiy ta'limning ba'zi bosqichlari va qismlari boshqa tuzilmalarda – turli jamoat tashkilotlarida, mahallalarda, FHDYO idoralarida, huquq muassasalarida va oilalarda amalga oshirilishi zarur bo'ladi. Chunki huquqiy ta'lim bevosita amaliyot bilan bog'liq. Shuning uchun huquqiy

⁸ X.B.Boboev- Kirish,, X.F.Voxidov Yu.T.Dadaboev D.Voxidova, Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. Oliy o'quv yurtlari huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun DARSLIK.

ta'limning ba'zi qismlarini, o'quvchilar auditoriyada olgan bilimlarini kundalik hayotda amalda qo'llashi va to'ldirishiga imkon yaratadigan tarzda tashkil etishni o'rganish zarur. Inson huquqlarini yaxshi bilish faqatgina huquqshunoslarning emas, balki har bir yosh avlodning chinakam burchiga aylanmog'i kerak.⁹

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini hayotimizda qaror toptirish yo'lidan bormoqdamiz. Mustaqilligimizning birinchi kunlaridanoq, o'zimizga xos va o'zimizga mos iqtisodiyotni va ijtimoiy modelni, ya'ni ustuvor yo'nalishlarni tanlagan ekanmiz, o'zgalardan farqli o'laroq, jamiyatimizda o'ta boylar va o'ta qashshoqlar bo'lishi ma'qul emasligini e'lon qilganmiz va bizning bugungi amaliy hayotimiz aynan shu maqsadga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 28-maydagi "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlashni yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar tugrisida" gi karorida ta'lim jarayonida ilgor pedagogik uslub va texnologiyalari, axborot kommunikasiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia takdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqish lozimligi ta'kidlangan edi.¹⁰

Bugungi kunda, huquqiy ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan ommaviy axborot vositalari va multimediya imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirgan holda foydalanish zarur. Huquqiy ta'limning asosiy maqsadlari quyidagilar:

- jamiyatning barqaror rivojlanishiga ko'maklashuvchi huquqiy bilim va malakalarga ega bo'lish;
- qonun manbalaridan etarlicha xabardor bo'lish;

⁹ F.Tursunov. Huquqshunoslik darslarini o'qitishda pedagogik texnologiyalar. 3bet

¹⁰ A.G.Ganiev. Keys-stady- o'quv jarayonini faollashtirish uslubi. Kasb-hunar ta'limi. № 4. 2012. 6-8-betlar

- huquqiy va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash;
- huquqiy faol fuqaroni tarbiyalash;¹¹

Kasb-xunar kollejlarda “Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar” o’qitilishida keys uslubini qo’llash texnologiyasi mavzusining dolzarbligi yana shundaki, ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o’rganilgan o’quv mavzusi bo’yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko’nikmalarini egallashga, ijodiy va o’rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o’z-o’zini nazorat qilishga yordam beradi”.¹²

O’sib kelayotgan yosh avlodni huquqiy jihatdan bilimli, tarbiyalı, ongli bir suz bilan aytganda huquqiy madaniyatli kilib tarbiyalashda pedagogik texnologiyalar, jumladan, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarni uqitishda “Keys-stady” uslubini kullanishning davr talabi ekanligini hisobga olgan holda urta-maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida kullashning ahamiyatini ilmiy asosda yoritib berish bu mavzuning bugingi kun uchun dolzarbligidan dalolatdir.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish” fanidan “Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar” mavzusining o’qitilishidan kelib chiqqan holda “Iqtisodiy-ijtimoiy huquq tushunchasi, xususiyatlari va huquqshunoslik tizimida tutgan o’rni, iqtisodiy va ijtimoiy huquqning rivojlanish tarixi, asosiy yo’nalishlari va predmeti, tamoyillari, manbalari, usullari va tizimi” masalalari yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar, nashrlar va darsliklar tahlili shuni ko’rsatdagi, iqtisodiy-ijtimoiy huquqining ushbu yo’nalishlari bo’yicha ko’plab olimlar, mutaxassislar, huquqshunoslar va pedagoglar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va samarali natijalarga erishilgan. Biroq “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish” fanidan

¹¹ G.N. Axunova, L.V. Golish, D.M. Fayzullaeva. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. Toshkent – 2009

¹² K.I. Axmetova, D.M. Fayzullaeva, D.P. Xoshimova. Innovasion ta’lim texnologiyalar. T – 2011. 155-bet

“Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar” mavzusini o’qitishda keys texnologiyasidan foydalanish yuzasidan aniq ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar har doim asosiy huquq sohalaridan biri bo’lib kelgan va bu to’g’risida boshlang’ish ma’lumotlar Konstitusiyamizda aks etgan. Lekin ayni paytda ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarni o’qitish metodikasi bo’yicha uslubiy qo’llanma yoki o’quv qo’llanmalar ishlab chiqilmagan. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar nazariy jihatdan quyidagi adabiyotlar tarkibida aks etgan: Inoyatov A.A.¹³, Azizxujayev A. Xusanov O. va boshqalar¹⁴, Gasanov M.Yu, Sokolov E.A¹⁵, X. B. Boboyev, X. T. Odilkoriyev¹⁶, Y.Tojixonov, A.X.Saidov¹⁷, Inoyatov A.A.Mexnat huquqi. -T.:“Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2002y; Islomov Z., Mirxamidov M¹⁸, Tursunov Y, Usmonova M¹⁹, Xusanov O.T²⁰, va boshqalarning ilmiy asarlarida o’z aksini topgan. Lekin,bu mavzuni oqitishda keys-stady texnologiyasini ishlab chiqish yoki uni mavzuda qo’llash bo’yicha aniq ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarni o’qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo’yicha O.A.Karimova tomonidan ezilgan “Huquq fanlarini o’qitish metodikasi” nomli uslubiy qo’llanmasida o’rta maxsusb kasb-hunar talimida huquqiy talim-tarbiya haqida so’z boradi. Bu mavzuda “O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o’rganish” o’quv kursining mavzular bo’yicha taqsimoti va o’rta maxsusb kasb-hunar ta’limi darslarida ko’rgazmali qurollardan foydalanish bo’yicha , shuningdek, huquqshunoslik darslarida modellashtirilgan talim tizimini qo’llash usullari to’g’risida ko’rsatma va tavsiyalar berilgan.

¹³ Inoyatov A.A O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta’minot xuquqi. Toshkent-2005y;

¹⁴ Azizxujayev A. Xusanov O. va boshkalar, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy xukuki. Ukuv qullanma - T.: "Shark", 2001y;

¹⁵ Gasanov M.YU, Sokolov E.A¹⁵, "O’zbekiston Respublikasida mehnat shartnomalari (kontrakt)". Uquv uslubiy qullanma T.:“Uqituvchi”, 1996y;

¹⁶ X. B. Boboyev, X. T. Odilkoriyev¹⁶, Davlat va xuquq nazariyasi, T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000-y;

¹⁷ Y.Tojixonov, A.X.Saidov. Jahon Konstitusiyalari (Jahon davlatlari Konstitusiyalari to’plami, 1-jild). -T.; O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001y;

¹⁸ Mirxamidov M. "Huquqshunoslik".O’quv qo’llanma. -T. “A.Qodiriy nomidagi xalk merosi” nashriyoti, 2002y;

¹⁹ Usmonova M, Mexnat xukuki. T.: -"Moliya” 2001y;

²⁰ Xusanov O.T, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi."O’zbekiston" 2006y.

Tadqiqot maqsadi. Kasb-hunar kollejlarda "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda keys texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta'limga yo'naltirish.

Tadqiqot vazifasi. Kasb-hunar kollejlarda "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda keys texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta'limga yo'naltirishda tadqiqot vazifasi sifatida quyidagilar belgilab olindi.

1. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tushunchasini izohlash hamda ularning mazmun mohiyatini ochib berish.
2. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar mavzusini o'qitishning maqsad va vazifalarini izohlash.
3. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar mavzusini o'qitishga oid DTS, o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari hamda meyoriy huquqiy hujjatlar tahlil qilish.
4. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar mavzusini o'qitishda keys-stadi uslubidan foydalanishning nazariy ahamiyatini ochib berish.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini tushuntirish.
6. Didaktik materiallarni tayyorlash va tajribada sinab ko'rish.

Tadqiqot ob'yekti. Kasb-hunar kolleji o'quvchilariga "*Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar*" mavzusini o'qitishda kes-stady texnologiyasini qo'llash jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Kasb-hunar kollejlarda "*Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar*" mavzusini o'qitish metodlarini va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari: Kasb-hunar kollejlarda "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda keys texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta'limga yo'naltirishda quyidagilar tadqiqot metodi sifatida belgilab olindi.

* o'quvchilarda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni o'rgatishda ularda huquqiy madaniyatni shakllanirishga oid bo'lgan huquqiy, psixologik, didaktik va metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish;

* o'quvchilarga iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni o'rgatish bo'yicha dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari hamda tavsiyalarni tahlil qilish; darslarni kuzatish va tahlil qilish, suhbatlar, so'rovnomalar, nazorat ishlari va test o'tkazish.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishimda tadbiq qilingan innovatsion texnologiyalar kasb-hunar kolleji o'quvchilarida huquqiy madaniyatni shakllantirishda metodik jihatdan qo'llash imkonini beradi, xususan, tadqiqot materiallaridan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" fani bo'yicha darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, oltita reja, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqning nazariy asoslari.

1.1. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tushunchasi hamda ularning mazmun mohiyati.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar fuqarolarning normal turmush kechirishini ta'minlovchi, yashash uchun ma'lum darajada o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondiruvchi huquqlardir.

Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob, 36-42-moddalarida ko'rsatilgan bo'lib, ular:

O'zbekistonda inson va fuqarolar iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari

- shaxslarning mulkdor bo'lish huquqi;
- mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi;
- adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalash huquqi;
- dam olish huquqi;
- qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda iqtisodiy ta'minot olish huquqi;
- malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi;
- bilim olish huquqi;
- ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlaridan iborat.

Fuqarolarning mulk huquqi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida, ya'ni "Xar bir shaxs mulkdor bo'lishga xaqli. Bankga qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi" deb belgilangan.

Mulk huquqi har kimning o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka bo'lgan o'z xohishiga ko'ra, o'z manfaatini ko'zlab egalik qilish, foydalanishi va tasarruf etishini anglatadi.

O'zbekistonda har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqatgina iqtisodiy jihatdan erkin fuqarogina haqiqiy mulk egasi bo'lib, u o'z mulkidan samarali foydalanishi va shu orqali mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy vazifasi davlat mulkini xususiylashtirish orqali monopoliyaga chek qo'yish va ko'p ukkladli iqtisodiyotni barpo etish, mulkni haqiqiy egasiga topshirish, mulkning barcha shakllarining rivojlanishiga bir xil shart-sharoit yaratib berish va rivojlantirishdan iborat. Bu vazifalarni bajarish, birinchi navbatda, mulk huquqini amalga oshirish mexanizmining huquqiy asoslarini yaratish, ayniqsa, uning muhim elementi bo'lgan har kimning o'z xususiy mulkiga erkin egalik qilish tamoyilini mustahkamlash edi.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston Konstitusiyasi insonning asosiy huquqlaridan biri-mulk huquqini ham mustahkamlaydi. Konstitusiyaning 36-moddasida insonning mulk huquqi mustahkamlangan bo'lib, ushbu modda "Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi" (1948-yil), "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" (1966-yil) va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalariga asoslangan.

Mulk huquqiga oid konstitusiyaviy normalarning rivojlanishi va uning huquqiy mexanizmini yaratishga doir bir qancha qonunlar qabul qilindi. "Fermer va dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Ijara to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida"gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning nodavlat sektori tobora rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichidagi asosiy vazifa davlat mulkining xususiylashtirilishini tezlashtirish, uni xaqiqiy mulk egasiga topshirish imkoniyatini topish, mulkdan o'z xohishi va irodasiga ko'ra davlat va jamiyat manfaatlariga mos holda egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishini davlat tomonidan himoya etilishini ta'minlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida, ayni vaqtda, mulkning xususiy va ommaviy (davlat) shakllari mavjud. O'zbekiston Respublikasida yashovchi har qanday shaxs mulkdor bo'lish huquqiga ega. Ya'ni shaxsning o'z mulkiga egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishi konstitutsiyaviy qoidalar bilan ta'minlanadi.

Shaxs o'zining mulkiy huquqlarini amalga oshirishda atrof-tabiiy muhitiga va kishilar sog'lig'iga zarar etkazmasligi kerak.

Davlat mulkdorning qo'lidagi mulkni o'zgalar tomonidan chegaralanishini taqiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida barcha mulkdorlarning huquq va erkinliklari himoya etiladi. Mulkning barcha shakllari daxlsiz va qonun bilan himoyalanaadi. O'zbekiston Respublikasida jamg'arma omonatlari barcha tijorat banklari tomonidan qabul qilinishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida bank omonatchilari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi.

Bank omonatining sir tutilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustaxkamlanganidek, insonlarning iqtisodiy huquqlari sirasiga kiradi. Bank tomonidan omonat sirlarini saqlashga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonunlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 38-moddasiga binoan moliyaviy operatsiyalarning sir tutilishi, xaridorlar va korrespondentlarning hisob omonatlarining sir saqlanishi ta'minlanadi.

Mulk huquqi har kimning o'ziga tegishli mol-mulk o'z hohishiga ko'ra, o'z manfaatini ko'zlab egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishni anglatadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi hamda er va boshqa tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyannig 55-moddasida ko'rsatilganidek, ular davlat muhofazasidadir.

Sobiq Ittifoq davrida davlat monopoliyasi hukmron bo'lgan barcha moddiy va nomoddiy ne'matlar xalk mulki deb hisoblangan, aslida esa uning egasi davlat edi. Usha davrda xom ashyo tarqatish, ishlab chiqarish jabhalari hammasi davlat tomonidan rejalashtirilgan. Shu rejalar asosida moddiy boyliklar iqtisodiy va madaniy rivojlanishni har bir korxona uchun davlat rejalashtirib bergan. O'sha davrda shaxslar xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishi umuman man etilgan edi. Chunki, bu socialistik ishlab chiqarish prinsiplariga to'g'ri kelmas edi. Konstitusiyada fuqarolarning shaxsiy mulklarining ob'ekti deb ularning mehnat jamg'armalari, turar joylari, uy-ruzg'or buyumlari, yordamchi xo'jalik asbob-uskunolari va shaxsiy buyumlari tan olinar edi.

Mulk huquqiga oid konstitusiyaviy normalarni rivojlanishi uchun va uning huquqiy mexanizmini yaratishga dior bir qancha qonunlar qabul qilindi "Mulkchilik" to'g'risidagi, "Fuqarolik kodeksi", "Ijara to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar va fond birja lari to'g'risida"gi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolati to'g'risida"gi " Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda mulkning xususiy va ommaviy (davlat) shakllari mavjud va bular bir xilda kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida barcha mulkdorlarning huquq va erkinliklari himoya etiladi. Mulkning barcha shakllari daxlsiz va qonun bilan qo'riqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida jamg'arma, omonatlar barcha tijorat banklari tomonidan qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston respublikasida bank omonatchilari bo'lib, O'zbekiston Respublika fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi. Bank omonatining sir tutilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanganidek, insonlarning iqtisodiy huquqlari sirasiga kiradi. Bank tomonidan omonat sirlari saqlashga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasini "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi.

Fuqarolarning mulklari davlat ehtiyojlari uchun, faqatgina qonunda belgilangan asoslarda va tartibda barcha xarajatlarini koplash sharti bilan olinishi mumkin. Mulkdor fakat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

O'zbekistonda har bir inson meros qoldirish huquqiga ega ekanligi O'zbekiston Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanadi.

Meros ikki yo'l bilan qonun va vasiyat yo'li bilan qoldiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi 1120-moddasida "har bir shaxs o'z mulkini to'laligicha yoki mulkning ma'lum bir qismini bir kishiga yoki davlatga yohud o'zini-o'zi boshqarish organlariga meros qoldirishi, o'zining vasiyatnomasini har qanday vaqtda o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin" deyilgan. Davlat vasiyatnomaning sir tutilishi kafolatlaydi.

Fuqarolarning meros huquqi

O'zbekistonda har bir inson meros qoldirish huquqiga ega ekanligi O'zbekiston Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanadi. Meros huquqiga oid fuqarolarning mulkiy munosabatlari fuqarolik qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga binoan meros qoldiruvchining o'lguniga qadar meros qoldirish huquqi saqlanib qoladi.

Fuqarolar, ya'ni meros ochilishida shu uyda yashagan shaxslar, farzandlar, qarindosh-urug'lar merosxo'rlar hisoblanadi.

Meros ikki yo'l bilan: qonun va vasiyat qilish orqali qoldiriladi.

Har bir shaxs o'z mulkini to'laligicha yoki mulkning ma'lum bir qismini bir kishiga yoki bir necha kishilarga, merosxo'rlar qatoriga kiruvchi yuridik shaxslarga yoki davlatga yohud o'zini-o'zi boshqarish organlariga meros qoldirishi, o'zining vasiyatnomasini har kanday vaqtda o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin. Vasiyatnomani o'zgartirish yoki bekor qilish holatlarida, bu haqda nima uchun o'zgartirgani yoki bekor etganini ko'rsatishi shart emas.

Vasiyatnoma (vasiyat) meros qoldiruvchi tomonidan yozma shaklda amalga oshirilishi shart.

Davlat vasiyatnomaning sir tutilishini kafolatlaydi.

Fuqarolik qonunchiligiga, asosan, merosxo'rlar qonun bo'yicha navbatma-navbat meros olish yo'li bilan merosga ega bo'ladilar. Fuqarolik Kodeksi bo'yicha merosxo'rlarning besh darajasi belgilangan bo'lib, merosxo'rlar qonun bo'yicha merosni teng miqdorda bo'lib olishadi:

- 1) meros qoldiruvchining farzandlari, (farzandlikka olingan bolalari), shuningdek, meros qoldiruvchining o'limidan keyingi bolalari;
- 2) qarindoshlari, meros qoldiruvchining aka-ukalari va opa-singillari, buvisi va buvasi, ota tarafidan bo'lganidek, ona tarafdagi qarindoshlari;
- 3) meros qoldiruvchining tog'alari va amma-xolalari;
- 4) meros qoldiruvchining oltinchi avlodgacha bo'lgan uzoq qarindoshlari;

Aytish lozimki, navbatdagi merosxo'rlar darajasi bo'yicha oldinda navbatda turgan merosxo'rlar bo'lmagan taqdirda meros olish huquqiga ega. Davlat qonun bo'yicha meros olish huquqini kafolatlaydi.

Fuqarolarning mehnat qilish huquqi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi",- deyiladi.

O'zbekistonda qonun bo'yicha to'la erkin iqtisodiy faoliyat har bir inson uchun ta'minlanadi, muhit tanlash, o'z mehnatini sarflash erkinligi, har bir shaxsning mehnat qilish huquqi, erkin ish joyini tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalanih kabi shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi, "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 6-moddasiga binoan barcha fuqarolar mehnat qilish huquqlariga ega bo'lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga ega. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab-mavqei, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik qobiliyatlariga va ular mehnatining natijalariga aloqador bo'lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnatga oid munosabatlar sohasida har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga yo'l qo'yilmaydi va bular kamsitish deb hisoblanadi.

Mehnat sohasida o'zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs kamsitishni bartaraf etish hamda o'ziga etkazilgan moddiy va ma'naviy zarar to'lash to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishi mumkin.

Har kim ijodiy ishlab chiqarish va ijodiy mehnat qilish huquqiga ega, qonunda taqiqlangan holatlar bundan mustasno. Har kim o'zi xohlagan joyda ish beruvchi va ish beruvchi organlarga murojaat etgan holda erkin ish joyini tanlashi mumkin.

Mehnat Kodeksining 58-moddasiga ko'ra, davlat har bir kishiga ish bilan ta'minlash turini, shuningdek, turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini, ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini noqonuniy bekor qilishdan himoyalashni ta'minlanishi, har bir kishiga ma'lum bir kasb va ish o'rganishda tenglik yaratish, mehnatga haq to'lash, xizmat bo'yicha harakatlanish, yangi kasbga bepul o'qitish, mahalliy organlar yoki ularning yo'llanmasi bilan boshqa o'quv yurtlarida boshqa joyga ishga o'tganda moddiy xarajatlarni qoplash, jamoat ishlarida muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatlarini kafolatlaydi.

Homilador yoki yosh bolalari bo'lgan ayollarni ishga qabul qilishni rad etish man etiladi.

Har bir ishchi mehnat muhofazasi huquqiga ega. Mehnatni muhofaza qilish deganda, amaldagi qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena, davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimi tushuniladi. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mehnatni muhofaza qilishning yagona tizimi tartibini belgilaydi. Mazkur qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoiti bilan ta'minlanish huquqiga ega. Mehnat muhofazasi sohasida davlat siyosati amalga oshirilib, u adolatli mehnat sharoiti, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beruvchi prinsiplarga asoslanadi.

Ellik nafar yoki undan ortiq bo'lgan ishchilarni birlashtirgan tashkilotlarda maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslardan iborat mehnatni muhofaza qilish xizmati tuziladi. 50 ta yoki undan ortiq transport vositalariga ega bo'lgan korxonalarda yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkil etiladi. Qonun ishga qabul qilishda mehnatni muhofaza qilish masalasiga oid normalarni kafolatlaydi. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasiga asosan mehnat shartnomasi shartlari mehnat muhofazasiga oid

qonun va normativ-huquqiy aktlarga mos holda qabul qilinishi kerak. Fuqarolarni salomatligiga zid bo'lgan ishga qabul qilish man qilinadi.

Ma'muriyat ishchini ishga qabul qilayotgan paytda mehnat faoliyati jarayonida kasallik kelib chiqishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirishga majbur.

Bundan tashqari mehnat shartnomasini tuzayotgan yoki boshqa ishga o'tayotgan paytda har bir ishchi ish sharoitlari, ma'lum imtiyozlar va muhofaza vositalari to'g'risida axborot bilan ta'minlanishi kerak.

Ish beruvchi tibbiy ko'riklarni tashkil etadi va bunday tartib sog'liqni saqlash idoralari tomonidan belgilanadi. Ishchi tibbiy ko'rik o'tkazishni talab etish, mazkur mehnat sharoiti natijasida uning sog'lig'i yomonlashishini aytish huquqiga ega. Og'ir mehnat sharoitida ishlovchi ishchilar bepul sut, tibbiy–profilaktika oziq-ovqatlari, gazli suv, maxsus kiyim, maxsus oyoq kiyimi va boshqa himoyalash hamda gigiena normalarida belgilangan narsalar bilan ta'minlanadilar.

Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga hamma joylarda rioya etilishi ustidan davlat nazoratini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan amaldagi nizomlarga muvofiq jamoat nazorati mehnat jamoasi va mehnatni muhofaza qilish uchun tashkil etilgan kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, mehnat resurslari bilan ta'minlash muammosi vujudga keladi va ishsizlar sonining muttasil oshib borishi kuzatiladi. SHuning uchun, iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik, uning oldini olish asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Shu maqsadda 1998-yil 1-mayda "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga 1993-yil 7-mayda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Aholini ishsizlikdan himoya qilish maqsadida birinchi marta ish bilan ta'minlangan va ishni yo'qotgan, shuningdek uzoq muddatdan keyin (bir yildan ortiq muddatga) ish

bilan ta'minlashni so'ragan shaxslar hamda ishsiz deb e'tirof etilganlarga quyidagi imtiyozlar belgilangan:

- ❖ Ishsizlik nafaqasini olish;
- ❖ Qaramog'idagi odamga moddiy yordam ko'rsatish;
- ❖ Kasb tayyorgarligi davrida stipendiya to'lanishi, malaka oshirish yoki qayta tayyorlash va bu vaqtlarning mehnat stajiga qo'shilishi;
- ❖ Xaq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etish imkoniyati.

Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi davlat siyosatini amalga oshirish natijasida 240 punktdan yuqori bo'lgan mehnat birja tizimlari tashkil etildi. Respublikaning har bir tumani bunday birjaga ega. Ishsizlarni ro'yxatdan o'tkazish, ularning kasb-mahoratini oshirish va ishsizlikning oldini olish mexanizmi tashkil etildi. Bugungi kunda ro'yxatga olingan ishsizlar soni mehnat resurslarining taxminan bir foizini tashkil etadi.

Majburiy mehnat yoki biron-bir jazo chorasini qo'llash orqali ish qilishga jalb etish taqiqlanadi.

Quyidagilar majburiy mehnat sifatida e'tirof etilmaydi: "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonun asosida ko'rsatilgan holatlar, favqulodda holatlar sharoitlarida, sudning hukmi qonuniy kuchga kirganligi bois va qonunda belgilangan boshqa holatlar".

Respublikamizda qonun bo'yicha to'la erkin iqtisodiy faoliyat har bir inson uchun ta'minlanadi, muhit tanlash, o'z mehnatini sarflash erkinligi, har bir shaxsning mehnat qilish huquqi, erkin ish joyini tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalaniish kabi shaxslarning konstitusiyaviy huquqlari O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi"gi, "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi bilan tartibga solinadi²¹.

²¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. (mualliflar jamoasi). TDYUI. Toshkent "Moliya" 2002y. 282- bet.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37- moddasida "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalash huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi" deb mustahkamlangan. Mehnat huquqi birinchi bo'lib, sobiq Sobiq Ittifok Konstitutsiyasida 1936 yil va O'zbekiston SSRning 1937 yildagi Konstitutsiyasida mustahkamlangan edi. Uning tarkibiga kura har bir shaxsning mehnat kilish va haq olishi kafolatlangan. 1992 yil O'zbekiston Konstitutsiyasida bunga qo'shimcha qilib har kimning erkin kasb tanlashi va majburiy mehnat taqiqlanishi mustahkamlangan.

Fuqarolarning dam olish huquqi

O'zbekistonda yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi (Konstitutsiyaning 38-moddasi).

Ish vaqti deb, ma'lum bir grafik asosida tashkil etilgan, mehnat shartnomasi bilan belgilangan mehnat majburiyatlari bajariladigan vaqtga aytiladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 115-moddasiga asosan xodim ish haftasida 6 kun ishlayotgan har bir ish kuniga etti soatdan ko'p bo'lmagan, besh kunlik ish haftasida 8 soatdan ko'p bo'lmagan ish bilan ta'minlanadi. Ishchining ish vaqti haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak. SHuningdek sog'liqning ahvoli, mehnat sharoiti va boshqa holatlarini hisobga olgan holda qisqartirilgan ish vaqti belgilangan:

- 1) 18 yoshga etmagan xodimlar, I va II guruh nogironi bo'lgan xodimlar;
- 2) noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar;
- 3) alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar;
- 4) uch yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan xodimlar.

Shuningdek mehnat shartnomasi shartlariga asosan ishga qabul qilinayotganda to'liq bo'lmagan ish kuni yoki to'liq bo'lmagan ish haftasi tashkil etilishi mumkin. Qonunlar va mehnat haqidagi boshqa normativ aktlarda nazarda tutilgan hollarda xodimning iltimosiga ko'ra ish beruvchi to'liqsiz ish vaqtini belgilab qo'yishi shart.

Xodim uchun belgilangan har kunlik ish vaqtining kamida yarmi tungi vaqtga (22.00 dan 6.00 gacha) to'g'ri kelsa 1 soatga qisqartiriladi. Mehnat qonunchiligida xodimni asosiy ish vaqtdan tashqari ish bilan band etishga faqat ishchining roziligi bilan yo'l qo'yilishi belgilab qo'yilgan.

Barcha xodimlarga, shu jumladan vaqtinchalik ishlovchilarga ham har yilgi mehnat ta'tillaridan keyin ish joylarining saqlanib qolishi va qayta tiklanishi kafolatlanadi. Yillik ta'til xodimlarga 15 ish kunidan kam bo'lmagan muddatga belgilanadi. Dam olish va bayram kunlari ta'til davriga to'g'ri kelganda ular ta'til kunlari sifatida inobatga olinmaydi.

Mehnat qonunchiligi xodimlarga yillik asosiy uzaytirilgan va qo'shimcha mehnat ta'tillarini belgilaydi. Yillik qo'shimcha ta'tilning eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yillik ta'tilda ishchiga o'rtacha oylik ish haqi miqdorida haq to'lash kafolatlanadi. Ta'til uchun haq to'lash, jamoa shartnomasida belgilangan muddatlarda, lekin ta'til boshlanmasdan oldingi oxirgi ish kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Mehnat huquqi to'g'risidagi qonunlarda ishchilarga maxsus ta'tillar, ya'ni homiladorlik va tug'ish, bolalarga qarab turish, ijodiy ta'tillar berilishi nazarda tutilgan.

Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olish huquqi

O'zbekiston davlat qurilishidagi asosiy tamoyillardan biri-kuchli ijtimoiy himoya hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi fuqarolarning asosiy huquqlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-oddasiga ko'ra, ya'ni "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan, tirikchilik uchun zarar eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas".

"Ijtimoiy ta'minot" atamasi davlat tomonidan yaratib beriladigan, insonlarning hayotiy faoliyati uchun zarur ehtiyojini moddiy tomondan qondirish uchun moddiy va boshqa ijtimoiy himoya qilish tushuniladi. Bular sirasiga pensiya, nafaqa va ijtimoiy nochor fuqarolarni pul va shunga o'xshash shakllardagi moddiy ta'minotlar bilan ta'minlash kiradi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyillaridan biri davlat faoliyatini iqtisodiy va ijtimoiy isloh qilishga asoslangan kuchli ijtimoiy siyosat hisoblanadi. Davlat organlari, jumladan, Prezident, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va idoralar, hokimiyatlar, mahalliy vakillik organlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishni amalga oshiradi. Bundan tashqari, shunday organlar tizimi mavjudki, ularning vakolat doirasiga avvalo yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalar kiradi. Bu Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi va uning joylardagi tegishli organlari hisoblanadi. Pensiya fondi, bolalar fondi, "Mahalla" fondi va boshqa fondlar tashkil etilib, ular samarali faoliyat olib bormoqda. Respublika Prezidenti Farmoni bilan fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti bilan shug'ullanish vazifasi ularning joylaridagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga berildi.

Respublikada fuqarolarning ijtimoiy ta'minotini amalga oshiradigan organlar tizimi va institutlar ishlamoqda. Davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilishning konstitusion huquqlarining amalga oshirilishi mazkur huquqlarni

himoya qiladigan mexanizm yaratilganligidir. Ijtimoiy ta'minot huquqi bilan malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Bular sirasiga pensiya, nafaqa va ijtimoiy nochor fuqarolarni pul va shunga o'xshash shakllardagi moddiy ta'minotlar bilan ta'minlash kiradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilidan biri, davlatning olib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohatlarini amalga oshirishga kuchli ijtimoiy siyosat olib borishga asoslanadi. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi" qonuni qabul qilinda.

Hozirda respublikamizning bir qator organlari va institutlari fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti masalalari bilan shug'ullanshib, ularning konstitusiyaviy huquqlarini davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilish mexanizmi yaratilgan. Ijtimoiy ta'minot huquqi bilan malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi

O'zbekistonda har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega (Konstitusiyaning 40-moddasi).

Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi davlat tomonidan kafolatlangan, shaxslarga berilgan huquq sifatida, tibbiyot muassasalari va maxsus malakali shifokorlar yordamida kerakli tibbiy yordam olish bilan izohlanadi.

Malakali tibbiy xizmatni maxsus tibbiy bilimlarga ega, gippokrat qasamyodini qabul qilgan va yordamga muhtoj har qanday bemorga sidqidildan xizmat qiladigan shaxslar amalga oshiradi. Davlat tibbiyot xodimlarining malakasi ustidan qattiq nazorat olib boradi. Qonunchilik tibbiy faoliyat bilan etarli malakaga ega bo'lmagan shaxslar shug'ullanishini taqiqlaydi.

Davlat xususiy sog'lomlashtirish muassasalarini ochishga hamda ular faoliyatini olib borishlari va ularning tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi, sifati

ustidan nazorat qiladi. Mabodo ular davlat standartlariga javob bermasa, faoliyat olib borishlari uchun berilgan lisenziya huquqidan mahrum qilinadi. SHuning uchun ham davlat tomonidan juda ko'p tibbiyot oliygohlari, o'rta-maxsus tibbiyot o'quv yurtlari barpo etilgan va ular soha uchun maxsus bilimlarga ega malakali mutaxassislar tayyorlaydi.

Malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash huquqi quyidagi shart-sharoitlar bilan ta'minlanadi:

1) davlat davolash va sanatoriya–kurort muassasalari tarmog'ining mavjudligi (11000 dan ortiq);

2) nodavlat va idoraviy tibbiy muassasalarini rag'batlantirish va rivojlantirish. Ko'plab ishlab chiqarish tarmoqlari, tashkilotlar o'zlarining poliklinika, sanatoriya, kasalxona va sog'lomlashtirish markazlariga ega;

3) fuqarolarning barcha qatlamlarini o'z ichiga oladigan keng qamrovli emlash ishlarini olib borish hamda kasalliklarni aniqlash va oldini olish;

4) tibbiyot kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish, ular faoliyatining samaradorligi va malakasi ustidan davlat nazoratini o'rnatish;

5) tibbiy sug'urta tizimini yaratish. Mehnatga yaroqsiz yoki nogiron fuqarolarni moddiy qo'llab-quvvatlash va ularga to'lovlar ajratish;

6) fuqarolarga davlat tibbiy muassasalari tomonidan bepul tibbiy xizmat ko'rsatish. Nogironlar, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar va og'ir bemorlarga dorixonalardan tekin dori-darmon olishga ko'maklashish;

7) tibbiyot muassasalarining zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash va ularda qulay shart-sharoitlar yaratish;

8) tez tibbiy yordam ko'rsatish muassasalarining mavjudligi.

Malakali tibbiy yordam ko'rsatish faoliyatini davlat tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligi rahbarligidagi organlar tizimi olib bormoqda. SHuningdek, "Sog'lom avlod uchun" xalqaro fondi onalar va bolalar sog'ligini saqlash yo'lida samarali ish olib bormoqda.

Tibbiy yordam olishga oid konstitutsiyaviy normalarning huquqiy mexanizmini amalga oshirishda "O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi, "OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida"gi, "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonunlar va ular asosida qabul qilingan boshqa huquqiy hujjatlar muhim o'rin egallaydi. Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi-deganda shaxslarga maxsus tibbiy bilimlarga ega malakali shifokorlar yordamida tibbiyot muassasalarida yoki tibbiy xizmat ko'rsatish mumkin bo'lgan joylarda maxsus kerakli tibbiy yordam olish bilan ifodalanadi.

O'zbekistonda har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 40-moddasi).

“O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat'i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi” deb mustahkamlangan “Fuqarolarining sog'lig'ini saqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 29 avgustdagi qonunining 13-moddasida.

Fuqarolar sog'liqini saqlash huquqi quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- ✓ fuqarolarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash;
- ✓ fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- ✓ davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Mamlakatimizda fuqarolarning sog'lig'ini saqlashning davlat tomonidan belgilangan asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

 sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;

- ✚ aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;
- ✚ profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;
- ✚ sog'liqini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;
- ✚ tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlari yig'indisidan iborat yagona sog'liqni saqlash tizimi amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasida bu sohada, shuningdek, "OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida"gi qonun, "Aholining sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun, "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonun, "Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida"gi qonun va ular asosida qabul qilingan boshqa huquqiy xujjatlar muhim o'rin egallaydi.

Fuqarolarning bilim olish huquqi

SHaxsning barkamol bo'lishida bilim olish huquqi katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Konstitusiyasining 41-moddasida shunday deyilgan: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir".

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, uning asosiy vazifasi har tomonlama barkamol erkin shaxslarni kamol topishiga shart-sharoit yaratish va ta'minlash hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim sohasiga davlat siyosati darajasida katta e'tibor berilmoqda.

1948-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi prinsiplariga asosan O'zbekiston Respublikasi shaxsning bilim olish huquqini amalga oshirilishining harakatdagi samarali huquqiy mexanizmini yaratib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis ushbu Deklarasiyaga, shu jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar va "Iqtisodiy , ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktlarga qo'shilish to'g'risida qator qarorlar qabul qildi. Bilim olish huquqiga tegishli bo'lgan xalqaro hujjatlarda (misol uchun, 1960 yil

14-dekabrda YUNESKO tomonidan qabul qilingan Ta'lim sohasini cheklashga qarshi kurash Konvensiyasi) "Ta'lim" termini ta'limning barcha turlariga va bosqichlariga tegishli bo'lib, bilimning sifati va darajasini, uning qanday sharoitlarda olib borilishi va unga keng yo'l ochish masalalarini qamrab oladi.

Xalqaro huquq normalariga muvofiq boshlang'ich ta'lim bepul va majburiy ekanligi, o'rta ta'lim va uning turli shakllari umumiylikini ta'minlash, oliy ta'limni barcha o'z qobiliyati asosida olishi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun mazmunini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi yaratilib, uning asosida shaxs ta'lim olishining huquqiy mexanizmlari amalda mustahkamlanadi.

Ta'limning yagona tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha tarbiya;
- umumiy ta'lim;
- maktabdan tashqari ta'lim;
- o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarning kasbiy malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- oiladagi ta'lim;
- mustaqil ta'lim;

Ta'lim turlari va shakllarining turli-tumanligi shaxsning ta'lim olishga bo'lgan talab va ehtiyojlarini to'la qondirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda har bir shaxs dini, tili, irqi, yashash joyi, millati, kelib chiqishi va qaerda ishlashidan qat'iy nazar teng ta'lim olish huquqiga ega deb ko'rsatib o'tiladi. Ta'lim olish huquqining mazmuni shundaki, O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosiga ta'lim va tarbiyaning barcha ko'rinishlaridan teng foydalanish

imkoniyatlarini kafolatlaydi. Ta'lim olish huquqini amalga oshirishga mavjud kuchli moddiy texnika bazasi imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy maqsadlaridan biri fuqarolik jamiyati qurish, uni har tomonlama rivojlangan, mustaqil va barkamol shaxslardan iborat bo'lishini ta'minlashdan iborat. Davlat faoliyatining ustivor yo'nalishi har bir insonning qobiliyatiga yarasha ta'lim olishi va uni jamiyat foydasiga, tarraqqiyotiga xizmat qilishini ta'minlashga qaratilgan. Texnika va fanning yuksak darajadagi rivojlanishi har bir kishi bilimini yuqori sifatda bo'lishini talab qilmoqda.

Shu bois kuchli ijtimoiy siyosat yo'nalishlaridan biri hisoblangan mamlakatimizda bepul ta'lim berish siyosatining amalga oshirilayotgani yuksak qadriyatlarimizdan biridir. Bunday deyishimizga sabab, rivojlangan davlatlarning barchasi ham shu tariqa bepul oliy va maxsus ta'lim siyosati olib borish imkoniyatiga ega emas.

Davlat tomonidan iqtidorli o'quvchi va talabalarni qo'llab- quvvatlash, ularga kerakli bilim saviyasini oshirish imkoniyatini yaratish, bilim olishni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mamlakatimizda bir qancha turdagi stipendiyalar, fondlar, bolalar madaniyat uylari tashkil etilgan.

Shaxsning barkamol bo'lishida bilim olish huquqi katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.» deyilgandir.

Ta'lim- bu davlat tomonidan qat'iy o'rnatilgan ta'lim me'yorlarini o'rganish bo'lib, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida, aniq maqsadga qaratilgan ta'lim tarbiya jarayonidir²².

Ta'lim inson turmush tarzining ajralmas elementidir. Unga nafaqat moddiy jihatdan ta'minlanish vositasi, balki salomatlik hamda jamiyat hayotida muntazam

²² A.A.Bezuglov, S.A.Soldatov. Konstitutsionnoye pravo Rossii. M. 2001. Tom I. 541 st.

ishtirok etish vositasi sifatida ham qaraladi. Ta'lim har qanday rivojlangan jamiyatning asosi hisoblanadi. Madaniyat ta'limsiz mavjud bo'lmaydi. Bu jamiyatda adolatsizlik va tengsizlikni bartaraf etishning vositalaridan biridir.

O'zbekiston respublikasi qonunchiligida xususan, 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda bilim olish huquqi jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanishi mustahkamlangan.

Qonunga ko'ra ta'limning quyidagi turlari mavjud: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Bilim olish huquqi:

davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;

barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;

oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditasiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestasiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

“Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, iloji bo’lsa oldin tarbiya, so’ngra ta’lim berilishi lozim. Uyda, oilasida yaxshi tarbiya ko’rgan bola ixlos va ishonch bilan ta’lim olishga, ilm-fanni o’rganishga intiladi.

Agar yoshlarda ma’naviy kamolot zarur bo’lsa, ularda ishtiyoq sust bo’ladi. Ana shularni hisobga olib, Forobiy avval yoshlarni tarbiyalab, mehnat qilishga va kasb-hunarni o’rgatib, keyin ta’lim berish lozim”²³.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida umumiy ta’limni davlat tomonidan bepulligi kafolatlab qo’yilgan. Bu esa bir tomondan aholining ta’lim olishga bo’lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirishda bosh huquqiy asos va ancha insonparvar, demokratik xususiyat kasb etadi.

Jahonda sanoqli davlatlarda mavjud bo’lgan kadrlar tayyorlash sohasida maxsus dastur, ya’ni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Oliy Majlis tomonidan qabul qilinib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning zamon talablariga javob beradigan tizimini shakllantirish va rivojlantirish, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa sharoitlarni yaratishni o’z oldiga maqsad qilib quygan va kadrlar tayyorlashda ta’limning uzluksizligiga katta e’tibor berildi. Mamlakatimizda savodxonlik darajasi ancha yuqori bo’lib, bu ko’rsatkich 97,7 % ni tashkil etadi. Ayni vaqtda jahonda savodsizlikka qarshi kurash hali davom etayotganini hisobga olsak, O’zbekistonda bu sohada qudratli moddiy-texnik baza mavjudligini e’tiborga olish lozim. Albatta, jamiyatda yalpi savodlilik ko’lamini oshirish bu umum ta’lim muassasalari(maktablar) gardaniga tushadi. Hozirgi vaqtda O’zbekistonda jami 9 mingdan ortiq umum ta’lim muassasalari, ya’ni maktablar faoliyat ko’rsatmoqda.

Fuqarolarning ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi hamda madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi

²³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1998. 130-134 betlar.

O'zbekiston Konstitutsiyasi har bir insonning qayerda yashashidan qat'iy nazar, unga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligini va ma'naviyat yutuqlaridan foydalanishini kafolatlaydi.

"Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi." (Konstitutsiyaning 42-moddasi)²⁴.

1966-yil 4-noyabrda qabul qilingan Xalqaro madaniy hamkorlik qilish prinsiplari Deklarasiyasida: "Har bir madaniyat o'z qadr - qimmatiga ega, uni saqlash va hurmat qilish lozim", degan so'zlar bitilgan.

O'zbekiston boy madaniy merosga ega. Konstitutsiyamiz madaniy boyliklarimizdan har bir kishining foydalanish huquqini kafolatlaydi. Madaniyat deganda inson tomonidan yaratilgan barcha boyliklar, yutuqlar yig'indisi tushuniladi va u ijtimoiy hayotda ko'pgirrali xususiyatga ega.

Madaniyatning tarkibiy qismlarini fan, ta'lim va san'at tashkil qiladi. Adabiy, musiqiy, badiiy asarlar va xalq eposi, ilmiy nazariya va hunarlar madaniyat fenomeniga kiradi. Har bir madaniyat elementi xalq hayotining u yoki bu ko'rinishini o'zida aks ettiradi. Har birimizning san'at, kino, adabiyot, musiqa dunyosidan bahramand bo'lish huquqimiz asosiy qonunimizda mustahkamlanadi. Barcha uchun teatr, muzey, kutubxona va arxitektura yodgorliklari eshiklari hech bir to'siqsiz ochiqdir. Har bir shaxs istagan fan va texnika sohasi bilan shug'ullanishi mumkin. Buni davlatimiz huquqiy, tashkiliy, moddiy va siyosiy jihatdan kafolatlaydi.

Madaniyat muassasalari taraqqiyoti faoliyati tizimini boshqarish Madaniyat ishlari vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Ilmiy-texnika sohasi faoliyati bilan Fan va texnika Davlat qo'mitasi shug'ullanadi.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston. T.: 2012-yil

"Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, O'zbekistonning yangi tarixini o'rganish markazi va shu kabi boshqa tashkilotlar madaniy yutuqlarni asrash va uni keyingi avlodga etkazishga xizmat qilmoqda. Konstitutsiyaning 42-moddasida berilishicha, "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi". Konstitutsiyamiz madaniy boyliklarimizdan har bir kishining foydalanish huquqini kafolatlaydi. Madaniyat deganda inson tomonidan yaratilgan barcha boyliklar, yutuqlar yig'indisi tushuniladi va u ijtimoiy hayotda universal xususiyatga ega.

Madaniyatning tarkibiy qismlarini fan, ta'lim va san'at tashkil qiladi. Adabiy, musiqiy, badiiy asarlar va xalq eposi, ilmiy nazariya va hunarlar madaniyat fenomeniga kiradi. Har bir madaniyat elementi xalq hayotining u yoki bu ko'rinishini o'zida aks ettiradi. Har birimizning san'at, kino, adabiyot, musiqa dunyosidan bahramand bo'lish huquqimiz asosiy qonunimizda mustahkamlanadi. Barcha uchun teatr, muzey, kutubxona va arxitektura yodgorliklari eshiklari hech bir to'siqsiz ochiqdir. Har bir shaxs istagan fan va texnika sohasi bilan shug'ullanishi mumkin. Buni davlatimiz huquqiy, tashkiliy, moddiy va siyosiy jihatdan kafolatlaydi²⁵.

Davlatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlikka keng yo'l ochish, mulkchilikning turli xil shakllarini muhofaza qilish natijasida davlatimiz bu huquqlarning amalga oshirishini tobora kengroq kafolatlab bormoqda²⁶.

Mulkdor bo'lish huquqi — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga ko'ra: «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi». Mulkdor bo'lish huquqi, mulk bilan bog'liq shaxsiy va tadbirkorlikka oid bo'lgan munosabatlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi bilan

²⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (mualliflar jamoasi) TDYUI. Toshkent "Moliya" 2002y. 292- bet

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Sharq. T.: 2003. 70-b.

tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining birinchi qismi 1995-yil 11-dekabrda va 1996-yil 29-avgustda ushbu Kodeksning ikkinchi qismi tasdiqlandi va 1997-yilning 1-mart kunidan boshlab kuchga kirdi.

Mulk huquqi — shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzilishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir.

Mulk huquqi muddatsizdir.

Fuqarolik Kodeksida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilgan holda, mulkning o'tmishda sobiq ittifoq davrida mulkchilikka bo'lgan davlat monopoliyasiga barham berildi²⁷.

FKning 167-moddasiga binoan mulk shakllari xususiy mulk va ommaviy mulkka bo'linadi. Sobiq ittifoq davridagi qonunlarga ko'ra fuqarolarning faqat shaxsiy mulklari — uy-ro'zg'or buyumlari, shaxsiy iste'mol mollari, yordamchi xo'jalik asbob-uskunalari, turar-joy, mehnat jamg'armasi bo'lishi mumkin edi. Ishbilarmonlik bilan shug'ullanishga va xususiy mulk egasi bo'lishga yo'l qo'yilmas edi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni fuqarolarning xususiy mulkka ega bo'lish huquqini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning XII bobi “Jamiyatning iqtisodiy negizlari” deb nomlanib, unda bozor iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi hamda mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi deb belgilangan. Lekin asosiy Qonunimizga binoan, mulkdor o'z mulkidan foydalanishda ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Sharq. T.: 2003. 71-b.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasiga binoan har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniish huquqiga egaligi, dam olish huquqi (38-modda), ijtimoiy ta'minot olish (39-modda), malakali tibbiy xizmatdan foydalanish (40-modda) huquqlari belgilangan va kafolatlangan.

Inson va fuqarolarning bu huquqlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'tiladigan "Davlat va huquq asoslari" faning huquq sohalarida keng va atroflicha o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir» deb belgilab qo'yilgan.

Bilim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan hisoblanib, ushbu huquqni aniq va to'liq amalda bajarilishiga 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari huquqiy kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyadagi bilim olish huquqining muhim qoidalarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida»gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvar 4-sonli «Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlar bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori, 1998-yil 5-yanvar 5-sonli «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi Qarori alohida ahamiyat kasb etadi.

1.2. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar mavzusini o'qitishning maqsad va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yunaltilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qushilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda. Inson, uning har tomonlama uygun kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ruyobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish Uzbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim tugrisida"gi O'zbekiston Respublikasi qonun(I chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan,Uzbekiston Respublikasi 29.08.97 y. qonuni bilan tasdiqlangan)ining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bulib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustakil ravishda muljalni tugri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yunaltilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ruyobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta uzlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida uz javobgarligini xis etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi²⁸.

²⁸ O'zbekiston respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi(I chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabulqilingan, O'zbekiston Respublikasi 29.08.97 y. qonuni bilan tasdiqlangan)

Umumiy urta ta'lim negizida utish muddati uch yil bulgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik lisey yoki kasb-hunar kolleji uquvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarda ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar mavzusini uqitish davr talabidir. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari ichida iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar muhim rol egallaydi. Bular inson hayotining eng muhim jabhalarida, jumladan, *mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalanih, dam olish, ijtimoiy ta'minot olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish va ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuklaridan foydalanish huquqlaridir.*

Mavzuning o'qitilishidan asosiy maqsadi quyidagilardan iboratdir:

a) ta'limiy- uquvchilarga Konstitusiyamiz va unda ijtimoiy va iqtisodiy hukuqlarning aks etishi, ularning mazmun mohiyati haqida tushuncha berish, ijtimoiy va iqtisodiy hukuqlarning vujudga kelishi tarixi-genezisi, taraqqiyot bosqichlari va bugingi kundagi shu sohadagi amalga oshirilayotgan islohatlar, qabul qilinayotgan qonun va qonun osti hujjatlari haqida tushuncha berish;

b) tarbiyaviy—har kandy qonun xam turmushga uz-uzidan tadbik etilavermaydi. Uning ruyobga chiqishini, uzlarining individual xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turgan kishilar ta'minlaydi. Uz navbatida, qonun talablarining bajarilishi fuqarolar uni qay darajada tushinishi, uni qanday qabul qilishiga, usha hujjat ularning e'tiqodiga aylanganligi yoki aylanmaganligiga bog'liq buladi²⁹. Bu erda uquvchilarni qonunlar sadoqat ruhida tarbiyalash nazarda tutiladi;

d) rivojlantiruvchi – pedagogikaning tizimlilik va muntazamlilik tamoyilidan kelib chiqib urganilayotgan mavzuni avvaldan beril gan bilimlarga mantiqiy

²⁹ A.Choriyev. Inson falsafasi. II jild. Toshkent-2002y. 172bet

boglash orqali yangi bilim,kunikma va malakalarni shakllantirish. Uquvchilar qalbi va ongida huquqiy demokratik davlat va kuchli fukarolik jamiyati barpo etishga hissa qushish ruhini yuksaltirish.

Mavzuni o'qitishning vazifalari:

Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar,ularning mazmun-mohiyati tug'risida nazariy bilimlar berish;

Konstitusiyamizda aks etgan ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarining xalqaro hukuk me'yorlariga mos, ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy qonunchiligimizning rivoji tug'risida nazariy bilim berish;

Konstitusiyamizda aks etgan ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarining boshqa huquq sohalari uchun (mehnat,fuqarolik,mulk, ijtimoiy ta'minot) fundamental asos vazifasini bajarishi, uning roli va roli tug'risida nazariy bilim berish;

Konstitutsiya mamlakatimiz fuqarolariga jahonning rivojlangan mamlakatlari kishilariga tenglashtiruvchi katta ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar beranligini uquvchilar ongiga singdirish ;

O'quvchilarda mulkdor bo'lish hissini tarbiyalash, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalash, dam olish, ijtimoiy ta'minot olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish va ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlarining tug'risida tushuncha berish;

Davlatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning insonlar uchun,jamiyatimiz farovonligi uchun ekanligini tushintirish ;

Olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qullashi uchun bilim,kunikma va malakalarni shakllantirish , huquqiy davlatni barpo etishda faol ishtirok qiladigan huquqiy bilimli komil insonni tarbiyalash ;

O'qituvchi mavzuni jamiyatning ta'lim – tarbiyaga bulgan ehtiyojini qondirish maksadida zator fanlardan bilim berar ekan, umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja – dasturga muvofiq hamda muayyan usul va uslublar oqrali tushintirib boradi.³⁰XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning boshlarida yashab faoliyat yuritgan YAn Amos Komenskiyning pedagogi nazariyasiga qushgan hissasi katta. U – "O'quvchilar bilim olish tushunchasiga ega. Oynani qanchalik chang bosgan bo'lsa ham, baribir kishi uz aksini kurishi mumkin, albatta, toza oyna kishi aksini toza kursatadi. Uqituvchining vazi fasi oynadagi chan gni artib tashlash, ya'ni bilimni bola ongiga etkazish, uni akliy tomondan ustirishdir" degan edi.³¹

³⁰ B.Ziyomuxammadov. Pedagogik mahorat asoslari."Tib-nashriyoti"-2009y.

³¹ A.K.Munavvarov "Pedagogika" T.1996 yil.

II BOB. “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” mavzusini o’qitishda pedagogik texnologiyalarning o’ziga xos jihatlari.

2.1. “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” mavzusini o’qitishga oid DTS, o’quv dasturlari, o’quv adabiyotlari hamda meyoriy huquqiy hujjatlar tahlili.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish” fanining rivojlanishini ilmiy-nazariy, amaliy va o'quv uslubiy jihatdan tadqiq qilib o'rganish, o'quvchilar ongiga huquqiy bilimlarni singdirish barobarida huquqiy ong va madaniyatni takomillashtirishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. Ayniqsa, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islohetish sharoitida huquqiy fanlarining rivojlanishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarga yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov e'tirof etganidek, *“... davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur”*³². “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, asr talablariga to'liq javob beradigan barkomol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz”³³.

Mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlatni shakllantirish jarayonida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish, huquqiy munosabatlarga oid tushunchalarga ega bo'lish, huquqiy jihatdan tartibga solinishi va qonun hujjatlari talablaridan xabardor bo'lish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining huquqiy asoslarini bilish muhim vazifalardan hisoblanadi.

³² I.A. Karimov. O'zbekiston Koastitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir.// Xalq so'zi.-2009 yil. 6-dekabr.

³³ I.A. Karimov. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ -T.: O'zbekiston, 2010. 74-75 b.

Yurtboshimiz I.A. Karimovning *"Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari"* asarida ilgari surilgan g'oyalarda yuridik fanlarni o'rganish borasida ham muhim vazifalarni belgilaydi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi o'rta maxsus ta'lim tizimida o'tiladigan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" fanidagi va "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusining namunaviy o'quv dasturiga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonun hujjatlaridan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" oid O'zbekiston Respublikasining qonunlari, normativ huquqiy hujjatlardan hamda mamlakatimizda nashr qilingan adabiyotlardan, yetuk mutaxassis va huquqshunos olimlarning ilmiy asarlaridan foydalanildi.

Bugungi kunda yurtboshimiz I.Karimov tomonidan *"Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va manaviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezon bo'lishi darkor"*³⁴ ligi haqidagi vazifalari ilgari surilmoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'llaridan biri bozor munosabatlarining iqtisodiy va huquqiy asoslarini sodda, tushunarli tilda ommaga yetkazuvchi qo'llanmalar, darsliklar, ilmiy ommaviy asarlar yaratish va yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularni bozor iqtisodining huquqiy bilimlari bilan yetarli qurollantirish, bo'lg'usi mutaxassis kadrlarda zamonaviy tafakkurni rivojlantirish lozimligidir.

³⁴ I.Karimov "Eng asosiy mezon-hayot haqiqitini aks ettirish" T., "O'zbekiston", 2009, 8-9 betlar

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O‘RGANISH” FANIDAN
MAVZULAR BO‘YICHA ISHCHI O‘QUV REJA**

No	Boblar va mavzular	Nazariy	Seminar	Jami	Mustaqil ish
1	Kirish. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini” o‘rganish o‘quv kursining maqsad va vazifalari.	1	1	2	
I BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASU, UNDA SHAXS VA DAVLAT MUNOSABATI HUQUQIY ASOSLARI. (4 soat)					
1	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – asosiy qonun.	1	1	2	1
2	O‘zbekistonda shaxs va davlat munosabati	1	1	2	1
II BOB. O‘ZBEKISTON FUQAROLARINING ASOSIY HUQUQLARI. (8 soat)					
1	Fuqarolar huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari.	1	1	2	1
2	Shaxsiy huquq va erkinliklar.	1	1	2	1
3	Siyosiy huquqlar.	1	1	2	1
4	Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.	1	1	2	1
III BOB. KONSTITUTSIYADA FUQAROLARNING ASOSIY BURCHLARI. (4 soat)					
1	Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari.	1	1	2	1
2	Vatanni himoya qilish va harbiy xizmatni o‘tash burchi.	1	1	2	1
IV BOB. HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI. (4 SOAT)					
1	Inson huqu va erkinliklarining ta‘minlanishi.	1	1	2	1
2	Fuqarolar huquqlarini himoya qilish mexanizmi.	1	1	2	1
V BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SHAKLI VA BOSHQARUV ORGANLARI. (18 soat)					
1	O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi va boshqaruv shakli.	1	1	2	1
2	O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti - Oliy Majlis.	2		2	1
3	Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senat va qyui - Qonunchilik palatasi.		2	2	1
4	Ijro etuvchi hokimiyatning huquqiy asoslari.	1	1	2	1
5	Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari.	1	1	2	1
6	Sud hokimiyati.	1	1	2	1
7	O‘zbekiston Respublikasida Prokuratura organlarining huquqiy asoslari.	1	1	2	1
8	Moliya va kredit.	1	1	2	
9	Mudofaa va xavfsizlik.	1	1	2	
	Jami	20	20	40	17

**Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun “O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasini o‘rganish” fani bo‘yicha o‘quv rejasi.**
(2012-yildagi ma‘lumotlarga asosan)

№	Darsning mavzusi	Dars soati	Dars turi	Reyting nazorat turi	Ko‘rgazmali qurollar va texnik vositalar	Foydalanilgan adabiyotlar va qo‘llanmalar	Uy vazifasi	Izoh
4.	Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.	2	Aralash	O.N	“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” CDdick slaydlar.	O‘zbekiston Respublikasining “Davlat gerbi to‘g‘risida”gi 1992 – yil 2 – iyul Qonuni.	70-80-bet	Mustaqil o‘qish

O‘rta maxsus ta‘lim uchun mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish” fanidan Davlat ta‘lim standarti O‘zbekiston Respublikasi o‘rta maxsus ta‘lim tizimi mazmunining zarur va yetarli hajmini, o‘quvchilarga mo‘ljallangan o‘quv yuklamasining hajmini va bitiruvchilarga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi. Ushbu o‘quv dasturi va o‘quv rejasi 2001-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining “Tarix” fani bo‘yicha o‘quv metodik kengashida muhokama qilingan va namunaviy o‘quv dasturi sifatida tavsiya etilgan.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish” fanidan “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” mavzusi yuzasidan o‘quvchilar DTS talablari asosida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish” fanidan *bilim, ko‘nikma* va *malakaga* ega bo‘lishlarida o‘quv dasturlari, adabiyotlari va ularga qo‘yilayotgan talablarning ahamiyati juda katta.

O‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida o‘qitilayotgan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish” fanidan “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” mavzusini o‘qitishda DTS, o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlariga tayangan holda o‘quv yili boshida O‘rta maxsus ta‘lim boshqarmasi tomonidan va ta‘lim muassasi rahbariyati tomonidan tasdiqlangan *ishchi o‘quv reja, o‘quv*

dasturi va u asosida o'quv dasturining mazmunini tuzib chiqiladi. Har bir ta'lim muassasi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" fanidan "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavzusini o'qitishda shunga asoslangan holda dars jarayonini tashkillashtiradi. Har bir fan eski ishchi dastur va o'quv rejalariga tayanib qolishi mumkin emas. Shundan kelib chiqqan holda DTS, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarning mazmuni va unda keltirilgan ma'lumotlar ham yangi qonunlarga asoslangan holda o'zgaradi va eskisi o'z-o'zidan DTS talablariga javob bermaydi. O'qituvchidan mavzu yuzasidan o'quvchilarga bilim berishida mana shu yangiliklardan boxbar bo'lishi lozim va o'z vaqtida o'quvchilarga mavzuni tushuntirishda yangi va eski malumotlarni o'zaro taqqoslab va tahlil qilib berishi talab etiladi.

"O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlari"

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi 400-sonli Qarori bilan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari" tasdiqlandi va bugungi kunda ta'lim muassasalarida qo'llanilmoqda.

Davlat ta'lim standartlari talimga davlat tomonidan qo'yiladigan talablarni bildiradi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlari – akademik litseylar va kasb hunar kollejlari o'quvchilarining umum ta'lim fanlari bo'yicha majburiy o'quv yuklamsi hajmini, bitiruvchilar saviyasiga qo'yiladigan talablarni belgilab berdi.

O'MKHT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

-  O'MKHTning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan cuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;
-  Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti itiqbollaridan , jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ✚ O'MKHTning demokratlashuvi, insonparvarligi va ijtimoiylashuvi ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlar darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samradorligini oshirish;
- ✚ Sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- ✚ Kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini, baholash mezonlarining tartibini belgilash;
- ✚ O'MKHT jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash va shu kabilardan iborat.

Har kandy mamlakatning kuchi uning fukarolarining ma'naviy etukligi, intellektual saloxiyatga egaligi bilan belgilanadi.

Fukarolarning ma'naviy etukligi, intellektual saloxiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning xar tomonlama shakllanishi uchun xizmat kiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda karor topgan ijtimioiy soglom muxit darajasi, ijtimioiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, axolining etnopsixologik.xususiyatlari,axlokiykarashlarivaxayotiye'tikodlariasosidashakllantiriladi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning yaratilishida mazkur jihatlar tula urganildi. Milliy dastur asosini Uzbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jaxonning ilgor mamlakatlari darajasiga kutarilishiga xissa kushuvchi dadil, mustakil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifatlarga ega bulgan kadrlarni tayyorlab voyaga etkazish jarayoni tashkil etadi.³⁵

Huquqiy ta'lim-tarbiya ta'limning barcha turlarida olib boriladi.

Bosqichli huquqiy ta'lim-tarbiya berishdan maqsad yoshlarning huquqiy ongini bevosita ta'sir etuvchi nazariy huquqiy bilimlar, kurikli va malakalarini tartib

³⁵ Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

toptirishni uzluksiz ta'minlashdir.³⁶

Rasmiy ta'lim-tarbiya bogchadan boshlanib, malaka oshirish bilan tugashi bizga ma'lum. Haqiqiy inson va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis sifatida uzini his qilishi uchun, har bir odam doimo uzini uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida ushlab turishi kerak. Uzluksiz rasmiy ta'lim-tarbiyaning birlamchi asosi dars hisoblanadi.

Dars-aniq maqsadni ko'zlab, berilgan vaktida bir xil yoshdagi ukuvchi-yoshlar bilan ukituvchi raxbarligida olib boriladigan bulib, darsning maksadi, mazmuni va xajmi ta'lim standartlari asosida belgilanadi. Dars-ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bulishi, bilimlar mustaxkam uzlashtirilishi, ukuvchi-talabaning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan xolda tashkil etilishi shart.

Pedagogika fani dars oldiga bir qator didaktik talablarni quyadi, ular quyidagilardan iborat:

-har bir dars aniq maqsadni kuzlagan holda puhta rejalashtirilishi yoki loyihasituzilishi lozim. Bu jarayonda uqitivchi darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini ya'ni, qanday boshlash, yangi materialni qanday utish, qanday tamomlash, kurgazmali va boshqa didaktik materiallardan qanday foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi;

-har bir dars aniq bir goyaviy izlanishga ega bulishi shart;

-har bir dars, dars xarakteriga mos usul va uslublardan samarali foydalanilgan holda amaliyot bilan boglanishi, kurgazmali vositalar bilan jihozlanishi shart;

Darsuchunajratilganvaqtvauiningdaqiqalaridanunumlivejamkorlikbilanfoydalanishtalabqilinadi v.h³⁷.

Demak, *dars o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro faol munosabatlariga asoslanadigan , pedagogikaning barcha turdagi*

³⁶ О.Каримова. Нуқуқ о'қитиш методикаси. Т-2011 й.

³⁷ В.Зиёмухаммадов. Педагогик махоратасослари. Ташкент.2009й."ТИБ-КИТОБ".138бет

metodologik asoslaridan kelib chiqib amalga oshiriladigan yaxlit bir jarayondir. Shuningdek, dars jarayonini amalga oshirish uchun zarur bulgan me'yoriy xujjatlar muxum axamiyatga ega.

Bular quyidagilar:

Namunaiy o'quvdasturi;

Ishchi dastur;

Taqvimiy reja;

Texnologik xarita;

Ma'ruzalar matni va darslik;

Uquv qullanmalar va didaktik materiallardir.

Namunaviy o'quv dasturi pedagogik ilmiy tadqiqot institutlarida yoki uquv muassasalaridagi yirik olimlar tomonidan ishlab chikiladi. U uquv muassasasini bitiruvchilarga kuyiladigan talablardan kelib chikib, yuz foiz Davlat standarti asosida tuziladi. Uni tuzishda didaktikaning barcha tamoyillaridan foydalanib, u fanning ukitilishidan kuzlangan asosiy maksadga mos ravishda buladi. Pedagogning ukuv-uslubiy majmuasining asosiy elementlaridan biri namunaviy ukuv dasturidir.

Ishchi o'quv dastur-namunaviy dasturdan kelib chikib, muayyan ukuv muassasasining yunalishidan xamda ushbu fanni ukiydigan pedagogning imkoniyatidan kelib chikkan xolda, pedagog tomonidan tuziladi va avval uquv muassasining ilmiy-uslubiy kengashidan, sung tarmok vazirligi tasdigidan utadi. Bu pedagogning darsga olib kiradigan ikkinchi me'yoriy xujjatidir.

Taqvimiy o'quv reja-o'quv muassasida tuzilgan jadval va ishchi dasturida kursatilgan mavzular asosida tuzilib, pedagogning dars utishi yoki ma'ruza qilish va amaliy mashgulotlarni olib borishning oy va kunlar buyicha tartibini kursatadi.

Konspekt yoki ma'ruzalar matni, yoki dars loyixasi. Dars yangi bilimlarni berish uchun an'anaviy ogzaki uslubda olib borishga muljallangan bulsa, pedagogning kulida konspekt yoki ma'ruzalar matni bulishligi talab qilinadi. Bu-ukuv-metodik majmuaning asosiy unsurlaridan biridir. Agar dars pedagogis

texnologiya asosida olib borilsa, pedagogning qulida shu darsning loyixasi bulishi shart.

Dars ishlanmasi. Agar dars pedagogis texnologiya asosida olib borilmaydigan bulsa, pedagogning qulida konspekt yoki ma'ruzalar matnida tashqari, darsning ishlanmasi bulishligi talab qilinadi. Dars ishlanmasida – mavzuning nomi, darsning maqsadi, kutilayotgan natija, darsda bermoqchi bulayotgan asosiy goya, tayanch tushunchalar, darsning jixozlari va darsning rejasiga an'anaviy tarzda – tashkiliy qism, avvalgi mashgulotda egallangan bilimlarni mustaxkamlash va bugungi beriladigan bilimlarga kuprik urnatish maqsadida takrorlash, yangi dars mazmunini tushuntirish, guruhlarda ishlash, musobaqalaar tashkil etish, darsni yakunlash va uyga vazifa berish degan unsurlarni kiritish lozim. Shuning ichiga texnologik xarita ham kiradi. Texnologik xaritaning birinchi ustinida mavzuning nomi, uquv jarayonining mazmuni, uquv jarayonini amalga oshirishda qullaniladigan usullar va ularning tizimi, kutiladigan natijalar uz ifodasini topishi kerak. Ikkinchi ustunda birinchi ustunda quyilgan savollarga chuqur uylab turub javoblar beriladi.

Pedagog qo'lida bo'lishi talab qilinadigan me'yoriy hujjatlar ichida talabalnring mustaqil ish mavzulari, konsultasiya jadvali ham bulishi maqsadga muvofiqdir.

O'quv hujjatlariga har tomonlama o'ylab tizilgan, chiroyli bezatilgan ko'rgazmali qurollar kiradi. Ular tinglovchilarda qonunlarga nisbatan hurmat bilan qarash xususiyatlarini shakllantiradi va huquqiy tarbiyaning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ko'rgazmali qurollar dars rejasiga loyiq bulishi kerak. Qaysi mavzu buyicha qanday kurgazmali qurol qullanishi dars oldidan aniqlanadi, mavzuda ularga tegishli joy va vaqt ajratiladi.

Odatda ko'rgazmali qurollarni talabalar, o'quvchilar o'zlari tayyorlab kelishlari tavsiya etiladi. Masalan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini tasvirlaydigan sxemani uch mavzuga bulib, katta formatdagi vatman qog'ozga chiziladi. Har bir mavzu alohida: «Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari»,

«Fuqarolarning siyosiy huquqlari», «Fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari» va «Fuqarolarning burchlari» deb nomlanib tinglovchilar yaxshi eslab qoladigan tarzda bezatilgan bulishi kerak. Uqituvchidan bir oz harakatchanlik, izlanish va tinglovchilarni qiziqtirishga erishish qobiliyati talab qilinadi. SHunda u uz oldiga quygan maqsadiga erishadi, dars qiziqarli va foydali utadi.

Darslik – yuqori malakali va tajribali olim hamda pedagoglar tomonidan tuzilib, yuz foiz namunaviy dasturdagi goyalardan xamda didaktika tamoyillaridan kelib chikib yaratiladi. Darslik uqituvchi pedagoglarga va ukuvchilarga asosiy o’quv quroli hisoblanib, oddiy va hammaga tushunarli adabiy tilda yoziladi. Darslik barchaga umumiy yoki oliy uquv muassasasining xususiyatidan kelib chiqib maxsus bulishi mumkin.

O’quv qullanmalar, asosan, tajribali pedagoglar tomonidan yozilib, faqat ukituvchi va pedagoglarga kushimcha ukuv kuroli bulib xizmat kiladi.

Didaktik materiallar pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo’lib, u dars mazmunini tula ifodalash va o’quvchi-talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib etishlari uchun xizmat kiladi. Bularga har turli kurgazmali qurollar, tarqatma materiallar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, uyinlar va hokazolar kiradi. Didaktik materiallar xam didaktikaning tamoyillariga mos ravishda yaratiladi.. Utilayotgan mavzuning tarbiyaviy aspektini aniqlash uchun uqituvchi nazariya maktablariga murojaat qilish kerak. Masalan, «Mustaqillik asoslari!», «Huquqiy davlat tushunchasi», «Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat va Qonunchilik palatalari tug’risida» mavzular utilganda Prezident asarlaridan, davlat va huquq nazariyasi, qonun yangiliklari, Oliy Majlis sessiyasi hujjatlari, huquqiy davlat belgilariga bagishlangan adabiyotlardan foydalanish, ularning ayrimlarini tinglovchilari tavsiya etish mumkin.

Har bir mavzuning uziga xos asosiy maqsadi bor. Masalan, ahloq va huquqning mavzusini ukitishdan maqsad davlat va huquqning uzviy bogliqligini tushuntirish, mustaqil respublikamiz rivojlanishida huquqning urnini kursatish, axloqiy normalar bilan huquqiy normalarning umumiy va farqliy belgilarini tushuntirish, ularning yangi avlodni tarbiyalashdagi urnini bayon etishdir.

Tinglovchilar huquqiy bilimning asoslarini bilish bilan bir qatorda ayrim, hayotda tuqnash keladigan huquq normalarini bilmasliklari mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasida nikoh yoshi qizlar uchun 17 yosh urnatilganligini, ayollarga pensiyaga chiqish yoshi 54 yoshdan belgilanganligini, ayrim hollarda qasddan qiynab odam uldirgan jismoniy shaxslar 13 yoshdan jinoiy jazoga tortilishi mumkinligini hamma ham bilmaydi. Demak, bu savollarning echimini topish uchun tinglovchilarga maxsus yuridik adabiyotlar tavsiya etiladi. Ular qatoriga Oila, Mehnat, Jinoyat kodekslari va boshqalar kiradi.

O'qituvchi ish rejasi

Darsni utishdan oldin ukituvchi ish rejasini tuzadi. Ma'lumki, xar bir soxaning o'quv rejasi asosida ukuv dasturi tuzilgan. SHu dastur ukuv yiliga o'quv ish rejasi tuzishda asos qilib olinadi. O'qituvchi dasturdan kelib chiqib kalendar reja tuzadi. Unda mavzular soatlarga bo'lib chiqiladi va dars utish vaqti, hajmi turi ko'rsatiladi.

O'qituvchilar ish rejasiga qushimcha metodik karta ham tuzishlari mumkin. *Unda darsning mavzusi, maqsadi, dars utish usuli, foydalanilgan adabiyotlar va texnik vositalarini utiladigan mavzu bilan boglanish kerak.*

2.2. "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mavusini o'qitishda keys-stadi uslubidan foydalanishning nazariy ahamiyati.

Mamlakat taraqqiyotining asosiy garovi qonunchilikka rioya qilish, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, jamiyatda huquqiy tartibotni saqlash, axloq-odob qoidalariga bo'ysunish kabi muhim masalalardir.

SHu bilan birga akademik lisey va kasb-hunar kollejlarda huquqiy ta'lim samaradorligini oshirishga dolzarb pedagogik muammo sifatida qarash lozim. Bu o'rinda huquqshunoslikka oid fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 2012-yil 28-maydagi "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar tug'risida"gi qarorida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalarni (*"case-study" uslubi, loyihalar uslubi, hamkorlikda o'qitish, "amaliy o'yin", interfaol va boshqalar*), axborot kommunikasiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqish lozimligi ta'kidlangan.³⁸

Ushbu qorning 5-bo'limida qayd etilgan "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi: ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalari (*"case study" uslubi, loyihalar uslubi, hamkorlikda o'qitish, "amaliy o'yin", interfaol ta'lim uslubi va boshqalar*), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganish"³⁹ borasidagi bandi bugungi kunda respublikamiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

³⁸ A.G.Ganiyev. "keys-study" o'quv jarayonini faollashtirish uslubi. Kasb-hunar. 6-8-betlar

³⁹ I. A. Karimov. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora tadbirlar to'g'risidagi Qarori. Toshkent oqshomi. №105(12.166). 2012-yil 29-may. 1-2-bet

KEYS TEXNOLOGIYASI.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Keys texnologiyasi asosiy manbai kabinetli, lavhali bo'lib, hayotiy vaziyatlar asosida bayon etiladi. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga yo'naltirilgandir. Bu tashkiliy institusional keys bo'lib, ma'lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuziladi. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzusi bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Keys stadi inglizcha sase – to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'limdir.

Keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etishga asoslaniladi. Keys stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni

tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Keys-stadi uslubi iqtisod va biznesga oid fanlarni o'qitishda keng qo'llaniladi. U birinchi marta 1870yilda Garvard universitetining huquq maktabi ukuv jarayonida qullanilgan. 1920yilda Garvard bizres maktabiga tadbiq etilgan. 1925 yilda Garvrd universitetining biznes hisobotlarida dastlabki keyslar chop etilgan. Shunday kilib, keys-stadining 2ta klassik maktabi mavjud. Bular: Garvard (Amerika) va Manchester (Evropa maktablaridir). Garvard biznes maktabi uquv vaqtinig qariyb 90foizi keyslarning taxliliga sarflanadi. Keys-stadi uquvchilarda muammolarnin uechi kunikmalarini shakllantirishning eng samarali uslublaridan hisoblanadi. U ukuvchilarning fanlarga bulgan qiziqishini oshiradi, izlanuvchanlik, fikrlash va ojdokorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Garvard biznes maktabining o'qituvchilari biznes yo'nalishidagi aspirantura bo'limi uchun to'g'ri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez angelaydilar. Ushbu masalani uechish uchun biznes maktabining o'qituvchilari tomonidan qo'yilgan dastlabki qadam uetakchi biznes amaliyotchilaridan intervyu olish hamda mana shu menedjerlarning faoliyati, unga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan batafsil xisobot yozish bo'ldi. Ma'ruza tinglovchilarga u yoki bu tashkilot to'qnash kelgan konkret vaziyat, ushbu vaziyatni tahlil etish va mustaqil ravishda yoki jamoa bo'lib munozara tashkil etish asosida uning uechimi topish tarzida taqdim etilar edi. Keyinchalik keys metodi biznes yo'nalishidagi ta'lim muassasalarida keng targ'ib etilgan. Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko'payib bormoqda. XX asrning 50 yillaridan boshlab biznes-keyslar G'arbiy Uevropa mamlakatlarida ommalashdi. Uevropaning uetakchi biznes maktablari keys-stadi metodi asosida dars beribgina qolmay, keyslarni yaratishda ham faol ishtirok eta boshlaydilar.

Hozirgi kunda akademik-litsey va kasb-hunar kollejlarida mazkur ta'lim uslubining roli katta. Ta'lim jarayoniga bu uslubning tadbiq etilishi uquvchilar iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar bilan bog'liq real vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish

orkali hayotda kelib chiqishi mumkin bulgan muammolarni , ularning kelib chiqishi sabablarini va ularni hal qilish bilim, kunikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida keyslarni qo'llashda ularni sodda, qiziqarli bo'lishiga, iloji boricha hozirgi kunda jamiyatimizda mavjud bulgan muammolar, real hayotiy vaziyatlarni qullashga e'tibor berishimiz lozim.

Keys texnologiyasidan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" fanidan hamda murabbiylik soatlarida foydalanish mumkin.

Keys-stadi bizning ta'lim tizimimizda mutlaqo yangi uslub bo'lganligi tufayli uchun uni quyidagicha tasniflab, mazmun-mohiyatini chuqurroq ochib berishga harakat qildik.

Taqdim etilayotgan keyslar vaqtiga qarab :

1.utmish va bugungi kunni bog'lash asosidagi keys

2. Avval bo'lib o'tgan voqelikka asoslangan keys

3. Istiqbolga yo'naltirilgan keys tarzida bulishi mumkin. Keyslarning qanday aks ettirilishiga qarab:

1) taxliliy 2) ta'limiy 3) amaliy 4) ilmiy-ijodiy turlarga bulinadi.

1.Tahliliy- ma'lumot va dalillarni izlab topish, toplash va taxlil etish, tasniflash,ular orasidan muhimlarini ajrata bilish, aniq va mantiqiy fikrlash kunikmalari shakllantiriladi.

2.Ta'limiy keyslar- ta'limiy keyslarning asosiy maqsadi mashq orqali urgatishdir. Ularda namunaviy uquv vaziyatlari aks etadi. Ta'limiy keyslar orqali muammoni uechish uslublari urgatiladi, amaliy kunikmalar shakllantiriladi. Ta'limiy keyslarning yagona uechimi bulmaydi. Quyilgan masalaga bog'liq ravishda uechimning bir-biriga mazmunan bogliq birnechta varianti taqdim etilishi mumkin.

Ta'limiy keysda tayyor bilimlar berilmaydi, balki bilim ta'lim oluvchi va ta'lim Beruvchining xamkorligi asostda eggalanadi. Ta'limiy keyslarni kullash natijasida nafaqat bilim olinadi, balki kasbiy faoliyat kunikmalari xam egallanadi. Ma'lum qoidalarga asoslanib real hayotiy vaziyatlar modeli ishlab chiqiladi. Undan foydalanib uquvchilar ma'lum bilim va amaliy kunikmalarni egallaydi. Ta'lim beruvchi hamkorlikdagi faoliyat jarayonini boshqaruvchi rolini bajaradi.

3. Amaliy keyslar-bu keyslarda iloji boricha real vaziyatlar aks ettiriladi. Ular tarixiy manbalar, real hujjatlar, statistik ma'lumotlarga asoslanadi. Bunday keyslarning maqsadi uquvchilarni real kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iborat⁴⁰.

4. Ilmiy ijodiy keyslar. Bunday keyslar yordamida uquvchilar ilmiy, ijodiy izlanish faoliyatiga tayyorlanadi. Keyslarni tayyorlashda ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarning ishlari va ilmiy-uslubiy qullanmalardan foydalaniladi.

Materialni taqdim etish usuliga kura:

1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy yozishma 4. Jurnalist tergov
5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistik materiallar majmui
9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui.

Keys ob'ektiga ko'ra:

1. Shaxsiy 2. Tashkiliy-institutsional 3. Ko'p sub'ektkli

Keys-stadi uslubidan foydalanadigan ukituvchining faoliyatini ikki bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqichda uqituvchi keysni tuzadi va uning tahlili uchun savollar tayyorlaydi. Bu murakkab ijodiy ishdir, ayniqsa, uslubiy kursatmalarni tayyorlash aloxida diqqatga sazovardir. Yaratilgan keys ekspert tekshiruvidan va bahosidan o'tishi kerak. Quyidagilar tekshirish usullari bo'lishi mumkin:

⁴⁰ Anduyev B.E. Keys-metod kak instrument formirovaniya kompetentnostey // Direktor shkoli. - №4, 2010. - s. 61
- 69

1. Keys loyihasining mutahassis tomonidan ko‘rib chiqilishi va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga muvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlar talqini va shu kabilarning tekshirilishi.

2. Ekspertlik bahosi va hamkasblar fikrlari, o‘qituvchi-keysologning keysning ta’limdagi qimmatini xususidagi fikri, uni tekshirishning 2-usulidir.

Ikkinchi bosqichda o‘qituvchi auditoriyada keys muhokamasini tashkil etadi. U kirish suzini aytadi. Baxs munozarani uyushtiradi, auditoriyadagi ishchi kayfiyatni qullab-quvvatlab turadi va vaziyatni tahlil kiladi. Yakuniy xulosa chiqaradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, keyslar amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadigan masalalardan tubdan farq qiladi. Masalalar, odatda, o‘quvchiga ma’lum bir nazariya, uslub yoki prinsiplarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Keyslar uquvchilarning bir necha uquv va kasbiy kunikmalarini egallashlartga imkon beradi. Masalalarning yagona uechimi bor. Keyslar esa bir necha uechimga ega bulishi mumkin. Keyslar biror ishlab chiqarish karxonasining faoliyati misolida ham tuziladi. Bunday keyslarni muhokama qilish kelgusida ana shu korxonada ishlaydigan bitiruvchilar uchun juda muhimdir. O‘z navbatida, keys muhokamasida ishtirok etgan karxona vakillari, bir tamondan, kelgusida amalga oshirilishi mumkin bulgan ishlar bilan tanishadi, ikkinchi tamondan, ta’limning davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini jamoatchilik asosida nazorat qiladi . bundan tashqari bitiruvchilarni ishga tanlab olish imkoniga ega buladilar.

Keyslar sodda tilda va qiziqarli bayon etilishi, muammoli va dramatik vaziyatlarni, ijobiy va salbiy misollarni qamrab olishi, uquvchilarning bilim darajasiga mos ma’lumotlarga ega bulishi kerak .

Keys-stadida masalaning yechimi orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- mazkur mavzu bo'yicha bilimni chuqurlashtirish;
- individual va guruhlarda muammoning yechimi tahlilini va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ishlab chiqish;
- mantiqiy fikr yuritishni jonlantirish;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'quv ma'lumotlarni o'rganish darajasini tekshirish.

Keys bilan ishlash natijalari yozma shaklda ilova etiladi

Keys – uchun yozma ish talablari

1. Ish A4 standartdagi varoqning bir tomonida (2-varoqdan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak.
2. Yozma ishni jihozlash tartibi:
 - birinchi betda, o'ng tomonda o'quvchi ismi, sharifi va guruhini yozishi kerak;
 - varoqning markazida keysning mavzusi yoziladi;
 - keyin esa keys bilan ishlash natijalari tezis shaklida yoziladi.

Keys bilan ishlash qoidalari

Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta'minoti har xil hajmda bo'lishi (bir varog'dan bir necha yuz varog'gacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha bo'lishi, axborot ko'pligi darajasi ham o'zgarishi mumkin bo'lgan - tahlilga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida:

- ❖ *taklif etilayotgan axborotlarni ko'rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang;*
- ❖ *vaziyatni tor istiqbolda ko'rib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman g'oyib bo'lishi mumkin;*

❖ *harakatlar rejasini vaziyatning tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so'ng shakllantiring*

**Amaliy vaziyatni bosqichma-bosqich tahlil qilish va hal etish
bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar**

1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish

Avvalo keys bilan tanishing. “*Berilgan muammo*” haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqing. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.

2. Berilgan vaziyat bilan tanishish

Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir abzasdan ikkinchi abzasga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boring. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish

Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Berilgan muammoni yechimini topishga harakat qiling: Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammo ostidagi muammolar asosiy muammo bilan qanday o'zaro bog'liqligiga izoh bering. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qiling va ob'ektning holatini aniqlang, asosiy jihatlariga e'tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling. “*Vaziyatda keltirilgan muammolar*”ning bir-biri bilan bog'liq tomonlarni ko'rsatib bering.

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash

Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat” jadvalini to'ldirishga kirishing. Muammoni yechish

uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq echimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

(mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

O'quvchilar ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan makksimal ball 1 ball	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilganmaksimal ball 2 ball	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan maksimal ball 2 ball	Jami maksimal ball 5 ball

4-5 ball – “a’lo”, 3 ball – “yaxshi”, 1-2 ball – “qoniqarli”

“MUAMMOLI VAZAIYAT” jadvali

<i>Vaziyatdagi muammolar turi</i>	<i>Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari</i>	<i>Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari</i>

MAQSADNING BELGILANISHI

Keysolog faoliyati mazmunini bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz

- ✓ Keysning o'quv kursi tuzilmasidagi o'rnini belgilash.
- ✓ Uning ta'lim maqsadini to'liq ifoda etish.
- ✓ Keysning o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlari natijalari uchun “mas'uliyat zonasi”ni aniqlash: o'zlashtirilishi, kengaytirilishi, rivojlantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar ro'yxati.

Muammoning ifodalanishi

Keysolog faoliyati mazmunini bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz

- ❖ Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun yetilgan zarurat bilan uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyatni belgilaydi.
- ❖ Muammoni asosiy tarkibiy qismlari (muammo osti muammolar)ni ajratadi.

Keys dasturiy kartasining qurilishi

Keysning dasturiy kartasi keys uchun axborot yig'ish va vaziyatni bayon qilish uchun asos bo'ladigan asosiy masalalar (tezislar)ning tuzilmalangan ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Institusional tizimning izlanishi tanlanishi

Keysolog faoliyati mazmunini va izchilligi

Quyidagi qarorlarni qabul qiladi:

Keys daladagi, kabinetli yoki ilmiy-tadqiqotchilik tusida bo'lishi?

Keys ob'ekti aniq shaxs (shaxslar) yoki korxona yoxud u ko'p ob'ektlilik bo'ladi?

Institusional tizimni tanlaydi (kabinetli keys uchun) yoki topadi (daladagi yoki ilmiy-tadqiqotchilik keysi uchun).

Axborot yig'ish usullari va vositalarining tanlanishi

Keys uchun axborot yig'ish usullari

- ✓ Intervyu
- ✓ Suhbat
- ✓ O'rganish (arxiv hujjatlari, hisobotlarni)
- ✓ Kuzatuv va h.k.

Axborot yig'ish vositasi

- ✓ So'rovnoma varag'i
- ✓ Intervyu olish varag'i
- ✓ Anketa
- ✓ Har xil jadvallar va boshqalar

Axborot yig'ish

Axborot manbalari.

- ✓ Statistik materiallar, hisobotlar;
- ✓ Vaziyat ob'ekti faoliyati haqidagi ma'lumotnomalar, axborotlar, prospektlar va boshqa ma'lumotlar;
- ✓ Internet;
- ✓ Ommaviy axborot vositalari;

Vaziyat modelining qurilishi

Keysolog faoliyatining izchilligi

Qaror qabul qiladi:

- ✓ Keys qanday bo'ladi: syujetli yoki syujetsiz?

- ✓ Keysdagi voqealar axborotni bayon qilishning vaqtdagi izchilligi bo'yicha o'tmishdan hozirga keladigan yoki keys-xotira yoxud prognostik bo'ladimi?
- ✓ Vaziyatga oid mashq qanday janrda bayon qilinadi: hikoya yoki esse yoxud tahliliy yozishma yoki boshqacha shaklda?

Keysolog qabul qilingan yechim asosida vaziyat modelini quradi.

Keysdagi vaziyat modeli

vaziyat sub'ekti faoliyatining ideal in'ikosidan iborat bo'ladi va ifodalangan muammo tashuvchisi

rolini bajaradi.

Keys matnining yozilishi

Keysolog faoliyatining izchilligi.

Qaror qabul qiladi:

Keys o'z hajmiga ko'ra qisqa yoki o'rtacha miqdorda yoxud katta bo'ladi.

Bu savolli keysmi yoki keys-topshiriqmi?

Keysda muammo qanday usulda beriladi?

Keys tuzilmasi bo'yicha qanday bo'ladi?

Keys yozishga kirishiladi.

Keysda muammoni berish usullari

1-usul – muammoni keysolog ifodalaydi.

2-usul – vaziyatdagi muammo yaqqol ifodalanadi, lekin bunda vaziyatning zarur elementlaridan biri (masalan, sheriklar haqidagi) axborot bo'lmaydi.

3-usul – matnda vaziyat sub'ektlari o'rtasidagi ziddiyat mavhum ifodalanadi.

O'qituvchi tomonidan keysni yechish va tahlil qilish varianti

Muammoli vaziyatni yechish yo'llari.

1.Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishamiz.

Avvalo keys bilan tanishib chiqamiz. *"Iqtisodiy va ijtimoiy muammolar va ularning yechimi"* haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqamiz. Muammoni yechish darajasini aniqlaymiz.

Misol Keys (Savolli keys)

"Jamiyatimizda uchrab turadigan iqtisodiy va ijtimoiy muammolar va ularning uechimi"

Fuqaro A. ismli ayol Qashqadaryo viloyati Kitob shahridagi "Ip yigiruv hissadorlik jamiyati" fabrikasida uzluksiz 21 yil davomida ishlab kelgan. Biroq fabrika 2007-yilda turli muammolar girdobiga tushub qolganligi, iqtisodiy muammolarini hal qila olmaganligi va tuman elektr tarmog'idagi qarzlarini qoplay ololmaganligi sababli bakrotlik e'lon qildi va o'z faoliyatini to'xtatdi. Bu vaqtda fuqaro A. ismli ayol hali nafaqa yoshiga yetmagan edi. 2011-yilda fuqaro A. ismli ayol 55 yoshga to'lganligi va nafaqa yoshiga yetganligi sababli tumandagi Moliya vazirligining pensiya jamg'armasi bo'limidagi pensiya ta'minoti masalalari bilan shugullanuvchi fuqaro X. ismli kishiga murojat qildi va kerakli hujjatlarni taqdim qildi.

Fuqaro X. hujjatlarni ko'zdan kechirib chiqib hujjatlar to'liq emasligini aytdi va hujjatlarini to'liq qilib kelishini so'radi va boz ustiga u ishlagan firma allaqachon faoliyatini to'xtatganligini, fuqaro A.ning ish faoliyati davomida jamg'arib brogan pensiya jamg'armasi va ish staji yetarli emasligini va ayni vaqtda bu ish bilan shug'ullana olmasligini, ishlari ko'pligini xodim X. aytdi va uning va uning vaqtini olmasligini so'radi hamda bu masala yuzasidan boshqa kishiga murojat qilishiniqilishini so'radi.

Fuqaro A. ismli ayol ikki kundan so'ng jamg'armaga qayta murojat qilib hujjatlari to'liq ekanligini nafaqa olishiga hech qanday to'siq yo'qligini aytdi. Xodim X. fuqaro A. ismli ayolga nisbatan nafaqa tayinlanishining o'z-o'zidan bo'lmasligini aytib turli bohonalarni vaj qila boshladi va agar uni "rozi" qilsa bu masalani hal qilib berishini aytdi. O'z haq **huquqlarini yaxshi bilmaganligi** va bu **masala yuzasidan yuqori idoralarga murojat qila bilmaganligi** sababli fuqaro A. ismli ayol xodim X.ning **tamagirlik** qilayotganini va nafaqayoshiga yetganda qonunun nuqtayi nazaridan yondoshgan holda nafaqa to'lanishi lozimligini va **qonunlarni yaxshi bilmaganligi** sababli bunga rozi bo'ldi.

Savol. Agarda fuqaro A. o'z haq-huquqlarini bilganida, qonunun-qoidani yaxshi bilganida sizningcha tamagirlik qilayotgan X.ining xatti-harakatlari qonunga xilofligini bilgan holda o'zining huquqi buzilganini bilarmidi? Agar bilganida fuqaro A. ismli ayol kimga murojat qilishi kerak edi?

Keysdagi asosiy muammo. Jamiyatimizda turli iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning kelib chiqishi

Muammo osti muammolar.

1. *Fuqarolarning o'z huquqlarini yaxshi bilmasliklari*
2. *Poraxo'rlik va tamagirlikning avj olishi*
3. *Sansolarlikning haddan oshib ketishi*
4. *Buyrokratik holatlarning tez-tez uchrab turishi va h.k.*

2. Berilgan vaziyat bilan tanishamiz.

Ma'lumotlarni yana diqqat bilan o'qib chiqib, biz uchun muhim bo'lgan satrlarni tagiga chizib olamiz. Bir abzasdan ikkinchi abzasga o'tishdan oldin, uni ikki-uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'yamiz. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatimizni jalb qilamiz:

O'z huquqlarini yaxshi bilmasliklari

Poraxo'rlik

Sansolarlik

Buyrokratik holatlar

Qonunlarni bilmaslik

Tamagirlik

3. Muammoli vaziyatning tahlili.

Muammoli vaziyatni tahlil qilishga harakat qilamiz. Jamiyatimizda uchrab turadigan salbiy illatlarni aniqlaymiz.

Fuqarolarning o'z huquqlarini yaxshi bilmasliklari

Poraxo'rlik

Sansolarlik

Buyrokratik holatlar

Qonunlarni bilmaslik

Tamagirlik va h.k

Albatta keys taqdim etayotgan keysolog yoki o'qituvchinig ham o'zinig shaxsiy fikr-javoblari bo'lishi talab etiladi.

Kesologning xususiy javob variant.

Muammoli vaziyatning tahlili va yechim jadvali.

<i>Vaziyatdagi muammolar turi</i>	<i>Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari</i>	<i>Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari</i>
<i>*Poraxo'rlik</i> <i>*Sansolarlik</i> <i>*Buyrokratik holatlar</i> <i>*Tamagirlik va h.k</i>	<i>Fuqarolarning o'z huquqlarini yaxshi bilmasliklari</i> <i>Qonunlarni bilmaslik</i> <i>Atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan beparvolik.</i>	<i>Qonunlarda boxabar bo'lish, o'z haq-huquqlarini yaxshi bilish, poraxo'rlik va tamagirliklarga qarshi kurashish orqali jamiyatimizda uchrab turayotgan shu kabi muammolarning oldini olish mumkin bo'ladi.</i>

O'tkazilgan tahlillar va natijalar

Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob'ektning holati aniqlangandan so'ng, muammoning asosiy qirralariga e'tibor qaratib, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qilishga harakat qiling. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olib, **"T – sxema"** jadvalini to'ldiring.

Qanday holatlar jamiyatimiz va yurtimizni rivojiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda?	Qanday insonlarning haq huquqlari tez-tez buzilib turadi va ular qanday qilib muammoli holatga tushib qolishadi?
<i>*Poraxo'rlik</i> <i>*Sansolarlik</i> <i>*Buyrokratik holatlar</i> <i>*Tamagirlik</i>	<i>o'z huquqlarini yaxshi bilmaydiganlar</i> <i>Qonunlarni yaxshi bilmaganlar</i> <i>Atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan beparvo insonlar.</i>

Yakuniy xulosa.

Bugungi kunda qonunlarda boxabar bo'lish, o'z haq-huquqlarini yaxshi bilish, poraxo'rlik va tamagirliklarga qarshi kurashish orqali jamiyatimizda uchrab turayotgan turli muammolarning oldini olish mumkin bo'ladi. Buning uchun qonunlarni yaxshi bilish, o'zgaralar haq-huquqlarini poymol qilmaslik va yon atrofizda bo'layotgan voqea-hodisalarga beparvo bo'lmasligimiz lozim.

Qo'yidagilar keysning zarur elementlari hisoblanadi:

- Keysnig nomi, tavsifi va maqsadi; **Nomi:** "Jamiyatimizda uchrab turadigan iqtisodiy va ijtimoiy muammolar va ularning uechimi". Tavsifi: Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi (syujet, keys ob'ekti mavjudligi,

materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari, o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli, chizmalashtirish usuli).

Maqsadi :o'quvchilarlarda Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan ijtimoiy ta'minot olish hukuqi to'g'risida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish. Keysning dolzarbligini asoslab berishi; Uning ta'lim maqsadi; Keys yuechish natijasida o'quvchilar erishishi mumkin bo'lgan o'quv natijalari e'lon qilinadi.

- Keysning o'quv rejasidagi o'rni ya'ni o'rganiladigan mavzu uchun necha soat berilganligi va mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar eggalashi kerak bulgan bilim (mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalanish, dam olish, ijtimoiy ta'minot olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish va ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi,)lar qisqacha tezis shaklida ifodalanadi.
- Keys materiallarini o'rganish rejasi e'lon qilinadi. Masalan:
 - 1.Keys mazmuniga kirish.
 - 2.O'quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida "Blits - so'rov" o'tkazish.
 - 3.Muammoni va uni uechish vazifalarini aniq ifoda etish.
 - 4."Keys – stadi"ni guruhlarda uechish.
 - 5.Natijalar taqdimoti va muhokamasini o'tkazish.
 - 6.Muhokama etilayotgan muammoni "*T-sxema*" jadvali asosida tahlil etish.
 7. Yakuniy xulosa chiqarish. Erishilgan o'quv natijalariga ko'ra o'quvchilar faoliyatini baholash
- Bosqichma-bosqich bajarish uchun vazifalar
- Muhokama uchun savollar; Agar keys savolli toifasiga tegishli bo'lsa, unda bayon qilingan vaziyat ohirida muammoli vaziyatni tahlil qilish va uechish jarayonida muhokama qilish uchun bir nechta savollar keltiriladi. Agar keys-topshiriq bo'lsa muammoli maydon shakllantirilgandan keyin "Kirish" qismida keys uechish jarayonida o'quvchilar tomonidan bajariladigan vazifa beriladi.

➤ Keys bilan ishlash natijalarini rasmiylashtirish talablari. Keysni rasmiylashtirish yo‘llari:

1.Qo‘lyozma yoki bosma qilingan variantda

2.Elektron variantda

3.Video variantda

4.Audio

5.Multimedia

➤ Qo‘shimcha ma'lumotlar va mustaqil urganish uchun masalalar

“Case-study” uslubidan ta'lim jarayonida foydalanish bosqichlari :

- O‘quvchilarni keys matni bilan tanishtirish:

- keysni tahlil etish;

- keysni baxs-munozara asosida muhokama etish;

- taqdimot o‘tkazish;

- baxs-munozarada ishtirok etganlarni baholash;

- xulosalar chiqarish.

Savollar qo‘yish orqali o‘quvchilar baxs-munozaraga jalb etiladi. Savollar o‘quvchilarga keys matni bilan birgalikda beriladi. O‘qituvchi baxs- munozarani boshqaradi va unda har bir o‘quvchining faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Ularning fikrlarini tinglab, baxs-munozara jarayoniga yo‘nalish beradi, lekin uning mazmuniga ta'sir ko'rsatmaydi. Keys tahlili natijalari taqdimotini o‘tkazish zarur. O‘zining intellektual mulkini ko‘pchilikka takdim eta olish, tanqidlardan xulosa chiqara bilish zamonaviy mutahassisning muhim shahsiy sifatlaridan biri hisoblanadi.

Vaziyatning murakkabligiga qarab, keys taxlili natijalari taqdimoti individual yoki guruh shaklida o‘tkazilishi mumkin.

Individual takdimot bitiruvchilarning javobgarligi va ma'suliyatini oshiradi. Keysni taqdimot etishning guruhiiy shakli esa, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Keyslardan nafaqat uqitish jarayonida, balki, ta'lim sifatini nazorat qilishda, bitiruvchilarni baholashda ham foydalanadi. Masalan, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga ijtimoiy va iqtisodiy hukuklarga oid keyslarni bitiruv ishlari sifatida berish mumkin. "Case-study" o'quvchilarda qo'yidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- ijodiy fikrlash;
- vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;
- boshqalarning fikrini tug'ri tushunish va qabul qilish;
- savol-javoblarda ishtirok etish;
- tahlil qilish;
- qaror chiqarish.

Kichik keyslardan foydalanib tashkil etiladigan mashg'ulotning tuzulishi:

- tashkiliy qism-3daqqa;
- psixologik tayyorgarlik-3dakika;
- o'quvchilarni mavzu va yangi atamalar bilan tanishtirish-4 daqiqa;
- nazariy bilimlar bayoni-40 daqiqa;
- o'quvchilarning mavzuga oid vazifalarni bajarishi -10 daqiqa;
- kichik keys muhokamasi-15 dakiqa;
- xulosa va uyga vazifa-5 dakika.

O'quvchilarda ijodiy shakllantirish uchun ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yuzaga keltirish zarur.

Keys uslubini o'rta-maxsus , kasb-hunar ta'limi muassaslarida keng joriy qilish uchun muammolar ham yo'q emas. Bu keys uslubi, umuman, ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalar tug'risida sodda tilda yozilgan zarur adabiyotlarning yuetishmasligi, mahalliy masalalarni yorituvchi keyslarning mavjud emasligi va ularni tuzish tajribasiga ega mutahassislarning kamligi,

o'qutuvchilarda keys uslubida mashg'ulot o'tkazish tajribasining yuetishmasligi bilan uzviy bog'liq.

Keys – texnologiyalarni loyihalashtirish

O'qituvchi harakatlarining izchilligi:

- Ishchi dasturi asosida o'quv mashg'uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (seminar- amaliy mashg'ulot) va shunga qarab ma'lumotni haqiqiy bulishini, muammoni ifodalay olishini va alohida nazariy holatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni topishni uddalashiga mo'ljallangan savollar to'plamini tuzish⁴¹. Ijobiy ekspert xulosasi va sinovdan keyin keys matni qo'shimcha ishlanadi va uning oxirgi varianti o'quv mashg'ulotlarida ishlatilishi mumkin. Agar keys ta'lim amaliyotiga keng tadbqiq etish maqsatida nashr qilinsa, pedagogik annotatsiyasi va imkon bo'lsa uslubiy ko'rsatmalar tayyorlaydi
- O'quv mashg'uloti maqsadini ifodalaydi, o'quv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi. Uqutuvchi uquvchilarga maxsus topshiriqlarni bajarish bo'yicha mashqlar avvalgi mashg'ulotlardan uquvchiga ma'lum uechish izchilligini qo'llash talab etilishini tushuntiradi, maxsus topshiriqlarni ishlab chiqish yoki berilgan topshiriqlarni mustaqil uechishning yo'llarini ishlab chiqadi; faoliyatning maqsad, sharoitlari davomiyligini, natijalarni taqdim etish shakli va vaqtini bayon etadi.
- Ta'limning optimal modelini (belgilangan vaqtda va qaror topgan sharoitlarda qo'yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta'lim uslublari, shakllari va vositalari majmui)ni tanlaydi;
- O'quv vaqt, keys hajmi va tanlangan ta'lim modelini inobatga olib o'quv mashg'ulotining texnologik chizmasini ishlab chiqadi;

⁴¹ Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Zamonaviy ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: 2009

- Modelni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilaydi: o'quv vaqti, auditoriyadagi o'quvchilarning ehtimoliy soni; auditoriyaning guruhlarda ta'limni tashkil etish, TTV va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish uchun imkoniyatlari;
- Monitoringni ta'minlaydigan teskari aloqa usullari va vositalarini belgilaydi;
- Ta'limdagi yutuqlarni oraliq va yakuniy baholash usullari va vositalarini belgilaydi;
- Loyihalashtirish faoliyati natijalarini jadval shaklida rasmiylashtiradi.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar talabalarning keysni hal etish texnologiyasi ikki texnologik bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samara olish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyaning tashqari) ish . O'quvchi mustaqil ravishda:

- keys materiallari bilan tanishadi;
- taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
- muammo va muammo osti muammolarni ajratadi,
- vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi;
- ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;
- taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriya) ishlash . O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, keys bilan birgalikda ishlashadi :

- guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;
- uchimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;

- muammoli vaziyat uechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;
- taqdimotga tayyorlanadi va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Vazifaga javob berish uchun taraflar tayyorgarlik kurish uchun ma'lum vaqt beriladi. Keysni uechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazishda quyidagilarga e'tibor beradi:

- muammoli vaziyat uechiminin o'z variantini taqdim etadi;
- tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydi va uning oqilonaligini asoslaydi;
- boshqa guruhlar qatnashchilari savollariga javob beradi va o'z takliflarini aniqlashtiradi.

Jamoa bo'lib keys ustidan ishlashda uquvchilarda bir qancha ijobiy sifatlar shakllanadi. Masalan , lider bulish, kommunikativlik, boshqalarning fikrlarini tinglash madaniyati, ma'suliyatni his qilish va mashg'ulotlarda faol ishtirok etish kabi fazilatlar shakllanadi. Jamoa bo'lib keys ustidan ishlashda:

- ☐ guruhlar taklif etgan uechimlar variantlarini muhokamasi;
- ☐ taklif etgan uechimlarning o'zaro baholanishi.
- ☐ Taklif etilgan uechimlarning xayotiyliigi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (uquvchilar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

III BOB. “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” mavzusining ta’lim texnologiyasi.

3.1. “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” mavzusini o’qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati

Ta’limda o’qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o’quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o’quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o’stiradi va shu tariqa o’rganilayotgan narsaning ongli ravishda o’zlashtirib olinishga erishiladi. Materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to’g’risida ham g’amho’rlik qiladi⁴².

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar fuqarolarning normal turmush kechirishini ta'minlovchi, yashash uchun ma'lum darajada uzining moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondiruvchi huquqlardir. Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob, 36-42-moddalarida ko'rsatilgan⁴³.

O’qituvchi o’quvchi-talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o’quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta’lim jarayoni orqali ya’ni bilim berish orqali uch maqsadni: ta’limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiruvchi maqsadni hal qilishi lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o’qituvchi va o’quvchilar faoliyatini birlashtiradi. Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o’quvchi- talabada mustaqil ishlash iste’dodi paydo bo’ladi. Uni o’ylashga o’rgatadi, ta’lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi. Ta’lim turli bosqichlarda amalga oshadi.

Birinchi bosqich – o’quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o’quvchi-talaba ta’limning mazmuni bilan tanishib, o’zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

⁴² Sh.S.Shodmonova. Pedagogik texnologiya. Metodik qullanma. T-2011y. 31-bet

⁴³ L.Ahmedova. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish. Ma’ruzalar matni. T-2012y. 38-bet

Ikkinchi bosqich – ular o‘quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo‘ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich – yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o‘qituvchining qo‘shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

To‘rtinchi bosqichda – ular o‘zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o‘quv jarayonining hamma bosqichlarida o‘qituvchi uetakchilik va boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, o‘qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmoqi sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan:

- 1) o‘quvchi va talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qiladi;
- 2) ularda dunyoqarashni, ishonch va e’tiqodlarini o‘stiradi;
- 3) yoshlarni muayyan darajada o‘qimishli, madaniyatli, tarbiyali kishilar bo‘lib uetishishlariga, qobiliyat va iste’dodlarini o‘stirishga erishiladi⁴⁴.

Akademik litsey davlat ta’lim standartlariga muvofiq urta maxsus ta’lim beradi. Uquvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan xolda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yunaltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi. Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida urta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi; uquvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va kunikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar buyicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi⁴⁵.

⁴⁴ N. G‘aybullayev, R. Yodgorov, R. Mamatqulova, Toshmurodova. Pedagogika. Ma’ruzalar matni. T-2000. 42-43betlar

⁴⁵ “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (I chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi 29.08.97 y. qonuni bilan tasdiqlangan)

Prezidentimiz aytganlaridek: “Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir”. Bunday yangicha yondoshishlar pedagogika fanining ob'ekti va predmetini kengaytirdi. Endi pedagogika fanining ob'ekti faqat ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy, metodologik tamonlarini amaliy ta'minlovchi fan emas, balki komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlovchi keng sohalarni o'z ichiga oladi. SHuning uchun kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi milliy ta'lim modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh ob'ekti va sub'ekti sifatida qaraladi. Yangi ta'lim qonunida va mutaxassislar tayyorlash milliy dasturida ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi. Pedagogika fanining metodologiyasida, mazmunida, tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkiliy shakllarida, sifatlarini aniqlashda katta o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlar yangi pedagogik texnologiyalarda o'z aksini topishi lozim⁴⁶.

Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan. U ta'limni “texnikaviy” qilishga undagan, ya'ni hamma narsa, nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi, o'quv jarayonini, u “didaktik mashina” deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarini topish muhimligini yozgan.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun majmualari texnik vositalarni yaratishda topgan⁴⁷.

Keyingi 10 yilliklarda pedagog olimlar va uqituvchilar diqqatini jalb qilgan masalalardan biri pedagogik texnologiya (PT) hisoblanadi. Bu mavzuning ilmiy

⁴⁶ N. G'aybullayev, R. Yodgorov, R. Mamatqulova, Toshmurodova. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. T-2000.3-b

⁴⁷ G.N. Axunova, L.V. Golish, D.M. Fayzullayeva Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. Toshkent – 2009. 8-bet

ishlarda, hisobotlarda, maxsus davriy nashrlarda qizg'in urganilayotganligi, bahs – munozaraga sababchi bulayotganligi ham ta'lim tarbiyada uning urni naqadar muhimligidan guvohlik beradi. Tadqiqotimizning maqsadi PT tushunchasi buyicha mavjud materiallarni jamlash, uning nazariy va amaliy jihatlarini Uzbekiston Respublikasi “Ta'lim tug'risida” qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida tahlil qilish, pirovard natijada qator konseptual holatlarni ifoda etish va akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni uqitishda pedagogik texnologiyalar- ning mazmun-mohiyatini, ahamiyatini kursatib berishga harakat qilish, shuningdek uni ilmiy bilimlar (tushunchalar) doirasiga utkazishdir.

Avvalo nega bugunga kelib PTga qiziqish shunchalik kuchaydi, degan savol tug'iladi. Aytish mumkinki, rivojlanayotgan davlatlarda odatda birinchi navbatda PTga ta'lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashish YUNESKO tomonidan ham ma'qullandi va 1972 yilda “Ta'lim rivojlantirish masalalari” buyicha Xalqaro Komissiyaning rahbari – Edgara Foraning ma'ruzasida ham uz ifodasini topdi: “Zamona- viy texnologiya ta'limni moderinizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuchdir”. Muhimi shundaki, Prezidentimiz I.Karimov tomonidan Milliy dasturni ruyobga chiqarish bosqichida (2001 – 2005 yillar) “o'quv – tarbiyaviy jarayon ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash” muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar mavzusini uqitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari, ijtimoiy hayotdagi o'rnini bilib olgan har bir o'qituvchi, barcha yoshlarni qonunga, me'yoriy xujjatlar talablariga javob bera oladigan shaxs qilib tarbiyalamog'i lozim. Dars va mashg'ulotlar jarayonida, har bir o'quvchi kelajakda o'z hayot yo'lini, hayotdagi qarashlarini asta-sekin shakllantirib borishga erishsin. Fuqarolarning turmushdagi faolligi va tashabbuskorlik bilan hayot kechirishi ularning ma'naviy ahloqiy va huquqiy e'tiqodlariga bevosita bog'liqdir.

Har bir inson davlat va jamiyat hayotda faol ishtirok etayotgan bo'lsa, huquqiy bilimga to'la ega bo'lsa, u o'zining konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari va barcha imkoniyatlaridan ham kundalik hayotida foydalanib boradi. Har bir fuqaro o'z hayotida mustahkam qarashga ega bo'lsa, jamiyat oldidagi dolzarb muammolariga to'g'ri baho berishga harakat qiladi. Shaxsning huquqiy faolligi ijtimoiy hayotning barcha sohasida namoyon bo'ladi⁴⁸.

Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar fan sohasi sifatida boshqa bir qator huquqiy hamda iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'liq bulib, ularning yutuqlaridan foydalanadi. Biz urganayotgan mavzu ijtimoiy ta'minot hukuqi, iqtisodiyot nazariyasi va mehnat huquqi fani bilan bog'liqdir. Masalan; ijtimoiy ta'minot olish hukuqi shaxsning mehnat stajiga, urtacha ish haqi miqdoriga, ishlab chiqarishda sog'liqqa zarar uetkazilishi, kasb kasalliklari kabi umumiy tushunchalar bilan ifodalanadi. Mexnat huquqi va ijtimoiy ta'minot huquqi umumiy normativ-huquqiy hujjatlar asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar fuqarolik huquqi bilan ham kupgina umumiy xususiyatlarga ega, xususan, huquq muomala layoqati, uning paydo bulishi, cheklanishi, muomalaga layoqatsiz deb topish, uetkazilgan zarar va uning qoplanishi, yuridik shaxs va uning maqomi masalalarida fuqarolik qonunchiligi tushunchalaridan hamda qoidalaridan keng foydalaniladi. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar huquq sohalaridan biri bulgan moliya huquqi fani bilan bog'liq bulib, davlat byudjeti xarajat qismiga kiruvchi faoliyatining bir turidan iborat buladi. Shuningdek, moliya huquqi umuman davlat moliyaviy faoliyatiga taalluqli buladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy hukuklar mavzusini o'qitishda shaxsga yunaltirish asosidagi mualliflik texnologiyalari mavjud.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari o'quvchi bilim faoliyatini tashkil etishi uchun ta'lim metodari bilan uzviy bog'liq. Bu usullar: muammoli

⁴⁸ O.Karimova. Huquq fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T-2009-y, 83-bet

izlanish, tadqiqot, dialogik, munosabat metodlari (dialog, evristik, suhbat, munozara, guruhli ish turlari va boshqalar).

Oxirgi paytlarda uqitishni individuallashtirish texnologiyasi hakida olimlar (bosh qotirishmoqda) ish olib borishmoqda. Individual uqitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va sur'ati uquvchining xususiyatlariga moslashtiriladi. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasiga quyidagilar kiradi:

Batov tizimi. AQSHda ishlab chikilgan bu tizimda ukuv jarayoni ikki qismga bulinadi: Birinchi qism-butuncha sinf ishi.

Ikkinchi qism-individual mashqulotlar.

Bunday mashg'ulotlar unga zaruriyat sezgan uquvchilar bilan yo umum tamonidan qabul qilingan me'yorlardan orqada qolmaslik yoki nisbatan rivojlangan kobiliyatlari bilan ajralib turganlar bilan bir qatorda bulishini ta'minlash maqsadida utkaziladi.

Yuqori kategoriya uquvchilar bilan uqituvchi, nisbatan kamroq qobiliyatli va kaloq ukuvchilar bilan uqituvchi yordamchisi shug'ullanadi.

Tramp rejasi-bu texnologiya AQSHda juda mashhur. Bu ukitish shakllarining shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg'ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg'ulotlar bilan qushib olib boriladi⁴⁹.

Tramp rejasi texnologiyasini ijtimoiy va iqtisodiy hukuqlar mavzusini ukitishda qullaydigan bulsak maqsadga muvofiqdir. Avval, 30 kishidan iborat auditoriyada ijtimoiy va iqtisodiy hukuqlar tug'risida zamonaviy texnik vositalar yordamida ma'ruza mashquloti utiladi. 5-6 kishidan iborat kichik guruxlar esa mavzu materiallarini muhokama qilishadi va bahs yuritadilar. 1-guruh Konstitutsiyamizning 36-moddasi buyicha, 2-guruh esa 37-moddasi buyicha va shu kabi guruhlar qolgan 5t a moddani uzaro taqsimlab olib, ularni

⁴⁹ Sh.S.Shodmonova. Pedagogik texnologiya. Metodik qo'llanma. T-2011y. 62-bet

muhokama qilishadi va hayotiy misollar yordamida izohlab berishga harakat qilishadi.

O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishda muammoli o'qitish texnologiyasining roli katta. Muammoli ta'lim-o'quvchilar faoliyatini nazariy va amaliy muammolarni va ushbu muammoli vaziyatlar kuchi orqali yaratilgan muammoli topshiriqlarni hal etish orqali yangi bilimlarni uzlashtirishga asoslangan holda tashkil etish usulidir. Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarning baxslari, mushohadalarida amalga oshiriluvchi analiz-sintez faoliyatiga asoslanadi. Bu ta'limning tadqiqotchilik turidir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli ukitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maksadlariga mos keladi. Masalan: 36-moddada har bir shaxs mulkdor bulishga haqli. Bankka quyilgan omonotlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi deyilgan. Yuqorida qayd qilib o'tkanimizdek, iqtisodiy huquqlar fuqarolik huquqi bilan bog'liq va shu sababli ham uquvchilarga taqdim etiladigan muammoni uechimini topishda o'quvchilarda ijodiy izlanish faoliyati rivojlanadi.

Bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol o'zaro harakatni tashkillashtirish yo'li bo'lib, bunda taqdim etilgan muammoli ta'lim mazmunini uechishda ular munozara yuritadilar, fikr yuritishni o'rganadilar, bilimlarni ijodiy o'zlashtiradilar

Alohida fikrlashni, bilimlarni mustahkamlash va amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni ta'minlaydi


Ta'lim oluvchilarning shaxsiy intilishlari, bilish qiziqishlarini shakllantiradi, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ta'lim oluvchilarning dialektik fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishiga yordam beradi⁵⁰.

⁵⁰ G.N. Axunova, L.V. Golish, D.M. Fayzullayeva Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. Toshkent – 2009. 20-bet

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi extimol kuringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur. Uquv materialiga talabalar diqqatinijalb qilish ularning bilishga bulgan qiziqishini uyg‘otish, talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zuruqish mashaqqatlariga olib kelish, talabalar tomonidan egallangan xozirgi bilim, malaka va kunikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bulgan talablarini qondira olmasligini kursata bilish, talabalarning uquv muammolarini tahlil qilishga, uning uechilishidagi eng ratsional yullarni aniqlashda yordam berishi kerak⁵¹.

O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati
Savol,tajriba yoki vaziyat kurinishida muammoli uquv vazifasini uquvchilarga taklif etadi	Muammoli topshiriqni tushunib, uni uechish yullarini izlaydi
Qo‘yilgan o‘quv topshirig‘i bo‘yicha o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini tashkil etadi	Muammoni hal etish variantlarini taklif etadi
Muammoli vazifani uechish variantlarini taklif etish, asoslash va uzlashtirilayotgan mavzuga bog‘lashni suraydi.	Variantlardan birini muammo uechimi sifatida asoslaydi
Muammoli-yunaltiruvchi savollar bilan uquvchilar bilimini tekshiradi va ukuvchilar taklif etgan uquv muammosining uechimlarini umumlashtiradi,tahlil etadi	Tahlil va taqqoslash orqali masalani tug‘ri uechimini qidiradi
O‘zlashtirilgan yangi bilimlarni mustahkamlash maqsadida savol ijodiy uquv topshiriqlarini beradi	Mavzu yuzasidan umumiy xulosaga keladi. Mavzuni mustaqil mashqlar bajarish orqali mustahkamlaydi

⁵¹ Sh.S.Shodmonova.Pedagogik texnologiya. Metodik qo‘llanma.T-2011y. 78-81-bet



O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash - bu ularning o'zaro almashinuvini (chog'ishtirishni) vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit holda mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishni rivojlantirishga, mustaqil amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad – tarbiya jarayonining asosiy sub'ektlari bo'lgan o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida

yuzaga keluvchi muloqotning samarasi bo'lishi bu tizimning yangicha mazmun kasb etishga erishishdan iborat.

Metodlarni ta'lim jarayonining o'zaro bog'liq ziddiyatlarni uechish usullari sifatida talqin qilar ekanmiz, biz metodlarni birmuncha teran tizimlashtirishning predmetli asosini va mazmunli mantiqini payqab olamiz. Pedagog o'quv jarayonini rejalashtirishda shu asosda aniq ketma-ketlikdan, metodlarning eng maqbul jamlanmasidan materialning o'ziga xosligi, litsey o'quvchilari tayyorgarligi, vaqt omili va kursning umumiy ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini inobatga olgan holda foydalanishi zarur.

O'qitish faoliyatining har qanday aktida har doim bir nechta metodlar chog'ishtiriladi, ular pedagog va litsey o'quvchilarning bir xildagi o'zaro harakatlarini turli tomondan tavsiflagan holda bir-biri bilan singishib ketadi, chunki o'qitish metodlari maqsadga muvofiqligi mazmunli faoliyatdan tashqarida mavjud emas. Bunday paytda faqat og'zaki, izlanuvchan yoki deduktiv metod qo'llaniladi, deyish mumkin emas. Aslida bu metodlar o'qitishning muayyan aktida jamuljam chog'ishtiriladi. Ushbu holatda muayyan metodni qo'llash to'g'risida gapirar ekanmiz, bu, birinchi navbatda, (boshqa metodlar yordamida) o'qitishning hozirgi bosqichi uchun ustun bo'lgan didaktik vazifalarni uechadi, degan fikrni anglatadi. Misol uchun, Huquqiy mavzu mazmunining imkoniyatlarini hisobga olgan holda, bosh vazifa o'quv-bilish faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish, o'qishda mustaqillikni rivojlantirish bo'lsa, unda biz birinchi galda boshqa metodlar yordamida joriy etiladigan evristik (izlanuvchan) metodlarni qo'llaymiz. Boshqa vaziyatda, ko'rsatmali tasavvurlarni rivojlantirish yoki o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish vazifasi uechilayotgan bo'lsa, birinchi o'ringa ko'rsatmali metodlar chiqadi.

O'qitish metodlarini qo'llash to'g'risidagi bunday dialektik tasavvur qator metodlarni, shu jumladan, chet el didaktikasidagi mavjud interfaol metodlarni ham yaxlit tasniflash imkonini beradi, o'qitish metodlarini sun'iy cheklashga yoki ularning har birini ayrim holda qarashga, faollashtirishga olib keladi.

Metodlarni ta'lim jarayonining o'zaro bog'liq ziddiyatlarni uechish usullari sifatida talqin qilar ekanmiz, biz metodlarni birmuncha teran tizimlashtirishning predmetli asosini va mazmunli mantiqini payqab olamiz. Pedagog o'quv jarayonini rejalashtirishda shu asosda aniq ketma-ketlikdan, metodlarning eng maqbul jamlanmasidan materialning o'ziga xosligi, litsey o'quvchilari tayyorgarligi, vaqt omili va kursning umumiy ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini inobatga olgan holda foydalanishi zarur.

3.2. “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” mavzusining texnologik xaritasi

Maruza mashg’ulotining ta’lim texnologiyasi

Mavzu: 7	Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.
-----------------	--

Darsni olib borish texnologiyasi

Mashg’ulot vaqti 2 soat	<i>O’quvchilar soni 25-30 gacha</i>
<i>O’quv mashg’ulotining shakli</i>	Ma’ruza
Ma’ruza rejasi	1. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tizimi. 2. Bilim olish huquqi. 3. O’rta maxsus, kasb hunar ta’limi davlat ta’lim standartlari.
Ma’ruza mashg’ulotining maqsadi: Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tizimi, bilim olish huquqi hamda o’rta maxsus, kasb hunar ta’limi davlat ta’lim standartlari haqida ma’lumot berish.	
Pedagogik vazifalar: 1. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tizimining mazmun- mohiyatini bayon etish. 2. Bilim olish huquqini izohlash. 3. O’rta maxsus, kasb hunar ta’limi davlat ta’lim standartlari haqida ma’lumot berish.	O’quv faoliyatining natijalari: 1. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tizimining mazmun- mohiyatini o’rganadilar. 2. Bilim olish huquqi qanday ma’no kasb etishini anglaydi. 3. O’rta maxsus, kasb hunar ta’limi davlat ta’lim standartlari haqida ma’lumotga ega bo’ladi.
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Ma’ruza, savol-javob, aqliy hujum asosida ishlash
<i>Ta’lim berish shakllari</i>	Umumiy, jamoaviy
<i>Ta’lim berish vositalari</i>	Ma’ruza matni, darslik, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va doska, kompeyutr, proyektr
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Huquq o’quv xonasi
<i>Monitoring va baholash</i>	Nazorat va savol-javob

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotiga texnologik xarita

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchi
1. O'quv mashg'ulotiga kirish 40 daqiqa	1.1. Tashkiliy qism. Salomlashish, yo'qlama qilish hamda o'quvchilarning darsga tayyorgarligini hamda o'tilgan mavzuni tekshirish. 1.2. Yangi mavzuni va uning rejasini e'lon qiladi. 1-ilova 1.3. Mashg'ulot o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi 2-ilova	1.1 Tinglaydi 1.2 Mavzu nomini, rejasini yozib oladi va tinglaydi. 1.3 Tinglaydi
2. Asosiy bosqich 30 daqiqa	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi 3-ilova Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tizimining mazmun- mohiyatini bayon etishda "Aqliy hujum" metodidan foydalangan holda <i>"Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarning bir-biridan farqi"</i> ni tahlil etish maqsadida guruhda yalpi so'rov o'tkazish. 4-ilova 2.2 Mavzu rejasining ikkinchi punkti <i>"Bilim olish huquqi"</i> ni bayon etadi. 5-ilova 2.3 Mavzu rejasining uchinchi punkti <i>"O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi davlat ta'lim standartlari"</i> rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi. 6-ilova	2.1. Tinglaydi va yozib oladi Fikr bildiradi va tahlil qiladi. 2.2. Tinglaydi, yozib oladi 2.3. Tinglaydi, yozib oladi
3. Umumlash tiruvchi bosqich 10 daqiqa	3.1 Mavzu umumlashtiriladi va umumiy xulosa qilinadi. O'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savollar berib yangi mavzu mustahkamlaydi. 3.2 Mavzu yuzasidan o'quvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan atama va tushunchalarga qisqacha izoh beradi.	3.1. Tinglaydi va javob beradi 3.2. Tinglaydi
4. Yakuniy bosqich 10 daqiqa	4.1 Mavzu bo'yicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi va yakunlovchi xulosa qiladi. 4.2 Mavzuni o'rganish uchun uyga qo'shimcha vazifa beradi. 7-ilova	4.1. Savol beradi va tinglaydi 4.2. Topshiriqni yozib oladi

Mavzu: Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar

Reja.

1. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tizimi.
2. Bilim olish huquqi.
3. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi davlat ta'lim standartlari.

2-ilova

№	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball	Jami ball

15 – 13 ball – “a’lo”, 12 – 10 ball – “yaxshi”, 9 – 6 ball – “qoniqarli”

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tizimi.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar fuqarolarning normal turmush kechirishini ta'minlovchi, yashash uchun ma'lum darajada o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondiruvchi huquqlardir.

Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi huquqlari *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob, 36-42-moddalarda ko'rsatilgan bo'lib, ular:*

- * shaxslarning mulkdor bo'lish huquqi;*
- * mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi;*
- * adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalash huquqi;*
- * dam olish huquqi;*
- * qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda iqtisodiy ta'minot olish huquqi;*
- * malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi;*
- * bilim olish huquqi;*
- * ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlaridan iborat.*

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tizimi.

Mulkdor bo'lish huquqi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga ko'ra: Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Mulkdor bo'lish huquqi, mulk bilan bog'liq shaxsiy tadbirkorlikka oid bo'lgan munosabatlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining birinchi qismi 1995-yil 11-dekabrda va 1996-yil 29-avgustda ushbu Kodeksning ikkinchi qismi tasdiqlandi va 1997-yilning 1-mart kunidan boshlab kuchga kirdi.

Mulk huquqi- shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzilishini bartaraf etishini talab qilish huquqidan iboratdir.

Mulk huquqi muddatsizdir.

Fuqarolik Kodeksi - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilgan holda, mulkning o'tmishda sobiq ittifoq davrida mulkchilikka bo'lgan davlat monopoliyasiga barham berildi.

FKning 167-moddasiga binoan mulk shakllari xususiy mulk va ommaviy mulkka bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, FK va O'zbekiston Respublikasining "Mulk to'g'risida"gi Qonuni fuqarolarning xususiy mulkka ega bo'lish huquqini mustahkamlaydi.

“**Aqliy hujum**” metodidan foydalangan holda “*Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarning bir-biridan farqi*”ni tahlil etish maqsadida guruhda yalpi so’rov o’tkazadi.

Aqliy hujum qoidalari asosida o’quvchilarga beriladigan savollar:

“*Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarning bir-biridan farqi*” nimada?

Ushbu savol orqali guruhda yalpi so’rov o’tkazadi va guruh fikrini bayon etib bo’lgach fikrlarni umumlashtiradi.

AQLIY HUJUM QOIDALARI:

- Hech qanday o’zaro tanqid va baholash bo’lmasligi kerak.
- taklif qilinayotgan g’oyaga baho berishdan saqlan, agar u juda yuqori va bajarilish ehtimoli bo’lmasa ham – hammasiga ruxsat beriladi.
- barcha keltirilgan g’oyalar qimmatli va teng kuchli – ularni tanqid qilmaslik kerak.
- javob berayotganni to’xtatmaslik kerak.
- kamchilik ko’rsatishdan saqlan.
- Maqsad miqdor hisoblanadi.
- Qancha ko’p fikr bildirilsa shuncha yaxshi: Yangi va qimmatli g’oyaning tug’ilishiga ehtimol shunchalik ko’p bo’ladi.
- fikrlar takrorlansa e’tibor bermaslik kerak.
- Ochiq tanqidiy fikrlarni aytishga ruxsat ber.
- paydo bo’lgan g’oyani agar u sening nazaring bo’yicha qabul qilingan sxemaga javob bermasa ham tashlab yubormaslik kerak.
- ushbu muammoni faqat mavjud usullar bilan yechish mumkin deb o’ylama.

5- ilova 1-slayd

Bilim olish huquqi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysining 41-moddasida, "Harkim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" deb belgilangan.

Bilim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan hisoblanib, ushbu huquqni aniq va to'liq amalda bajarilishiga 1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida" hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunlari huquqiy kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyadagi bilim olish huquqining muhim qoidalarini amalga oshirishda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni viyaga yetkazish to'grisuda"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvar 4-sonli "Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlarlar bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, 1998-yil 5-yanvar 5-sonli "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi Qarori alohida ahamiyat kasb etadi.

5- ilova 2-slayd

Bilim olish huquqi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysining 41-moddasida, "Harkim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" deb belgilangan.

Bilim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan hisoblanib, ushbu huquqni aniq va to'liq amalda bajarilishiga 1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida" hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunlari huquqiy kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyadagi bilim olish huquqining muhim qoidalarini amalga oshirishda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni viyaga yetkazish to'grisuda"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvar 4-sonli "Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlarlar bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, 1998-yil 5-yanvar 5-sonli "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi Qarori alohida ahamiyat kasb etadi. "Umid" jamg'armasi Prezidentimiz tashabbusi bilan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 13-yanvar qaroriga muvofiq tashkil qilingan. O'zbekistonning demokratik huquqiy davlat qurish yoliga o'tish ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga yangicha yondashish, eski andozalardan voz kechish, hamda jahon tajribasini hisobga olishni talab qilmoqda.

O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi davlat ta'lim standartlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi 400-sonli Qarori bilan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari" tasdiqlandi va bugungi kunda ta'lim muassasalarida qo'llanilmoqda.

Davlat ta'lim standartlari ta'limga davlat tomonidan qo'yiladigan talablarni bildiradi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlari – akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha majburiy o'quv yuklamasi hajmini, bitiruvchilar saviyasiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitiruvchilarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi, unda:

** akademik litseylar uchun- fanlar bo'yicha o'qitilgan soha;*

** kasb-hunar kollejlari uchun – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlovi yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi (O'MKHTTYKIUT)ga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo'yicha berilgan malaka ko'rsatiladi.*

Kasb-hunar kollejini tugatganlik to'g'risidagi diplom olingan mutaxassislikka muvofiq mehnat foliytni amalga oshirish hamda oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish huquqini beradi.

O'MKHT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

** O'MKHTning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;*

** mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;*

** O'MKHTning demokratlashuvi, insonparvarligi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlar darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;*

** sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;*

** kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini, baholash mezonlarining tartibini belgilash;*

** O'MKHT jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash va shu kabilardan iborat.*

* * *

U Y G A V A Z I F A***Mustaqil bajarish uchun vazifa.***

1. Fuqarolar qariganlarida, mehnat layoqatini yo'qotganlarida, boquvchisidan mahrum bo'lganlarida ijtimoiy ta'minotning qanday turlarini olishga haqli bo'ladilar?

Javobingizni tegishli joriy qonunlardan foydalangan holda hayotiy misollar yordamida yozma shaklda bayon qiling.

2. Ushbu jadvalni to'ldiring.

MODDALAR	<i>IQTISODIY HUQUQLARINGIZ</i>	MODDALAR	<i>IJTIMOIIY HUQUQLARINGIZ</i>

3. Tushunchalar tahlili.

<i>MULK</i>	?
<i>IJTIMOIIY AHVOL</i>	?
<i>IJTIMOIIY TENGLIK</i>	?
<i>YURIDEK SHAXS</i>	?
<i>KASB</i>	?
<i>VASIYAT</i>	?
<i>DAVLAT MULKI</i>	?
<i>DAVLAT INTIZOMI</i>	?

Xulosa.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni hamda huquqshunoslik fanlarining rivojlanishini ilmiy-nazariy, amaliy va o'quv uslubiy jihatdan tadqiq qilib o'rganish, o'quvchilar ongiga huquqiy bilimlarni singdirish barobarida huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishni zaruriyat qilib qo'yimoqda. Ayniqsa, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish sharoitida huquqshunoslik fanlarining rivojlanishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoshlarga yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov e'tirof etganidek, "... davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur"⁵². Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, asr talablariga to'liq javob beradigan barkomol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz⁵³.

Mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlatni shakllantirish jarayonida, iqtisodiy va ijtimoiy huquq masalalarini o'rganish, iqtisodiy-ijtimoiy huquq munosabatlariga oid tushunchalarga ega bo'lish, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi va qonun hujjatlari talablaridan xabardor bo'lish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining huquqiy asoslarini bilish muhitni vazifalardan hisobtanadi.

⁵² Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir.// Xalq so'zi.-2009 yil. 6-dekabr.

⁵³ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ -T.: O'zbekiston, 2010. 74-75 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning *"Jahon moliyaviy iqtisodiy inqimzi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari"* asarida ilgari surilgan g'oyalar iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni o'rganish borasida ham muhim vazifalarni belgilaydi. Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda mazkur asardan ham unumli foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi ustida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi, mavjud qonunlarni o'rganishdan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishi uchta bob, oltita reja hamda xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lgan holatga keltirildi va shu rejalar asosida ilmiy izlanish olib borildi.

Har bir bobga doir tushunchalarga alohida e'tibor berishga, jumladan, birinchi *"Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tushunchasi hamda ularning mazmun mohiyati"* rejasida iqtisodiy va ijtimoiy huquq tushunchasiga ta'rif berildi. O'z navbatida bu tushunchalarga tarif berish bilan birgalikda uning mazmun mohiyatini ochib berishga ham harakat qilindi. Mazkur rejani o'rganish jarayonida uni yuridik fanlar bilan, balki, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy fanlar bilan uzviy aloqada ekanligini ko'rish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining 1-bob ikkinchi rejasida iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar mavzusini kasb-hunar kollejlarida o'qitilishining maqsad va vazifalarini izohlashga alohida e'tibor qaraildi. Ushbu mavzuni kasb-hunar kollejlarida o'qitishdan maqsad o'quvchilar ongiga iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar to'g'risida tushuncha hosil qilish va kengroq o'rganish hamda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining 2-bobi *"Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar"* mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari deb nomlanadi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda ushbu fanni o'qitishga doir bo'lgan zamonaviy o'quv dasturlari, o'quv rejaları, o'quv adabiyotlari hama me'yoriy huquqiy hujjatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchu ham bu rejada ushbu hujjatlar tahlil qilindi.

2-bobning ikkinchi rejasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 2012-yil 28-maydagi qaroriga asoslangan holda tuzildi. Chunki yoshlarga zamonaviy bilim berishda pedagogik texnologiyarning o'rni kattadir. Ushbu rejada bitiruv malakaviy ishida o'rganilayotgan mavzuni Keys-stady texnologiyasi asosida o'qitish texnologiyasini ishlabchiqqan holda o'qitish masalasi kotarilgan va ma'lum ma'noda maqsadga erishilgan.

3-bob birinchi rejasida ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga ortib borayotgaligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 2012-yil 28-maydagi *“Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora tadbirlar to'g'risida”*gi qaroridan kelib chiqqan holda keys-stadi texnologiyasini tashkil etish haqida malumot berib o'tildi. Bu texnologiya o'quvchilarga bilim berishda o'ziga xos ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Dars jarayonida o'quvchilar bu texnologiya yordamida zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi va o'quvchilarni mustaqil ishlashiga jalb qila olish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining oxirgi rejasi *“Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar”* mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari mavzusining bir soatlik dars ishlanmasiga bag'ishlangan. Bunda asosan o'quvchilar faolligini oshirish va darsga qiziqishini oshirish maqsadida *“Aqliy hujum”* metodidan foydalanilgan.

Yurtboshimiz I.A.Karimov tabri bilan aytganda, fanning vazifasi kelajagimizning shaklu-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat. Odamlarga mustaqillikningafzallikligini, mustaqil bo'lmagan millatning

kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab tushuntirib beish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim⁵⁴.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni o'quvchilar ongiga singdirishda keys-stadi texnologiyasini qo'llagan holda yozilgan ilk bitiruv malakaviy ishi bo'lganligi sababli unda ba'zi kamchiliklar uchrashi va ayrim masalalar atroflicha yoritilmagan bo'lishi mumkin.

⁵⁴ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T.:O'zbekiston. 1999. b. 149-150

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Rahbariy adabiyotlar.

- 1.1. I.A.Karimov. "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" Toshkent. "Sharq", 1993 yil
- 1.2. I.A.Karimov Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7.T.:O'zbekiston. 1999.
- 1.3. I.A. Karimov. O'zbekiston Konstitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir.// Xalq so'zi.- 2009 yil. 6-dekabr.
- 1.4. I.Karimov "Eng asosiy mezon-hayot haqiqitini aks ettirish" T., "O'zbekiston", 2009
- 1.5. I.A .Karimov. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ -T.: O'zbekiston, 2010.
- 1.6. I. A. Karimov «Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohat va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir».
- 1.7. I.A.Karimovning 2009 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilda iqtisodiy islohatlarni chukurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
- 1.8. I. A. Karimov. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora tadbirlar to'g'risidagi Qarori. Toshkent oqshomi. №105(12.166). 2012-yil 29-may.

2. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

- 2.1. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (I chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan,O'zbekiston Respublikasi 29.08.97 y. qonuni bilan tasdiqlangan)
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekistaon. T.: 2012-yil

3. Aosiy adabiyotlar va monografiyalar.

- 3.1. Gasanov M.Yu, Sokolov E.A, "O'zbekiston Respublikasida mehnat shartnomalari (kontrakt)". O'quv uslubiy qo'llanma T.: "O'qituvchi", 1996y;
- 3.2. A.K.Munavvarov "Pedagogika" T.1996 yil
- 3.3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1998.
- 3.4. O'zbekiston respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi (I chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabulqilingan, O'zbekiston Respublikasi 29.08.97 y. qonuni bilan tasdiqlangan)
- 3.5. N. G'aybullaev, R. Yodgorov, R. Mamatqulova, Toshmurodova. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. T-2000.
- 3.6. X. B. Boboyev, X. T. Odilkoriyev, Davlat va huquq nazariyasi, T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000-y;
- 3.7. Y. Tojixonov, A.X. Saidov. Jahon Konstitusiyalari (Jahon davlatlari Konstitusiyalari to'plami, 1-jild). -T.; O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001y;
- 3.8. Azizxujayev A. Xusanov O. va boshkalar, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. O'quv qo'llanma - T.: "Sharq", 2001y;
- 3.9. Usmonova M, Mexnat huquqi. T.: -"Moliya" 2001y;
- 3.10. A.A. Bezuglov, S.A. Soldatov. Konstitutsionnoye pravo Rossii. M. 2001. Tom I.
- 3.11. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (mualliflar jamoasi). TDYUI. Toshkent "Moliya" 2002y.
- 3.12. Mirxamidov M. "Huquqshunoslik". O'quv qo'llanma. -T. "A. Qodiriy nomidagi xalq merosi" nashriyoti, 2002-y;
- 3.13. A. Choriyev. Inson falsafasi. II jild. Toshkent-2002y.
- 3.14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Sharq. T.: 2003.
- 3.15. Inoyatov A.A O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta'minot huquqi. Toshkent-2005y;
- 3.16. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

- 3.17. Xusanov O.T, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. "O'zbekiston" 2006y.
- 3.18. B.Ziyomuxammadov. Pedagogik mahorat asoslari. "Tib-nashriyoti"-2009y.
- 3.19. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Zamonaviy ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: 2009
- 3.20. O.Karimova. Huquq o'qitish metodikasi. T-2011 y.
- 3.21. K.I. Axmetova, D.M. Fayzullaeva, D.P.Xoshimova. Innovasion ta'lim texnologiyalar. T – 2011.
- 3.22. Sh.S.Shodmonova. Pedagogik texnologiya. Metodik qullanma. T-2011y.
- 3.23. L.Ahmedova. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Ma'ruzalar matni. T-2012y.
- 3.24. X.B.Boboev- Kirish,. X.F.Voxidov Yu.T.Dadaboev D.Voxidova, Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. Oliy o'quv yurtlari huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun DARSLIK.
- 3.25. F.Tursunov. Huquqshunoslik darslarini o'qitishda pedagogik texnologiyalar.

4. Jurnal va gazeta maqolalari.

- 4.1. A.S.Saidov. Mustaqillik qomusi va inson huquqlari. Muloqot, 1999. № 6.
- 4.2. B. Xakimova. Pedagogik kollejlarda ta'lim jarayonini takomillashtirish. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. 3/2008-yil.
- 4.3. A.G.Ganiev. Keys-stady- o'quv jarayonini faollashtirish uslubi. Kasb-hunar ta'limi. № 4. 2012.
- 4.4. Andyusev B.E. Keys-metod kak instrument formirovaniya kompetentnostey // Direktor shkoli. - №4, 2010

5. Avtoreferatlar.

- 5.1. Saydalixodlayeva N. F Yuqor sinf o'quvchilarining huquqiy tarbiyasi tizimi. Avtoreferat. T.: 2008-yil

6. Internet saytlari.

1. <http://www.norma.uz>
2. <http://www.gov.uz>
3. <http://www.lex.uz>
4. <http://www.lawbook.ru>
5. <http://www.lawlibrary.ru>

Mavzuga oid tayanch so'zlar.

Nº	O'zbekcha	Ruscha	Ingilizcha
1.	Iqtisod	Экономика	
2.	Iqtisodiy huquq	Экономическое право	
3.	Ijtimoiy huquq	Социальное право	
4.	Ijtimoiy bilim	Социальное образование	
5.	Mulk huquqi	Имущественное право	
6.	Erkin kasb tanlash	Свободный выбор профессии	
7.	Adolatli mehnat	Справедливый труд	
8.	Mehnat sharoiti	Трудовое положение	
9.	Ishsizlik	Безработица	
10.	Ishsizlikni himoya qilish	Обеспечение занятости населения	
11.	Ishsizlikdan himoyalanish	Защита от безработицы	
12.	Dam olish huquqi	Право на отдых	
13.	Mehnat layoqati	Трудовая правоспособность	
14.	Mehnat layoqatini yo'qotish	Потеря трудовой правоспособности	
15.	Iqtisodiy ta'minot	Обеспечение экономики	
16.	Malakali tibbiy xizmat	Профессиональное медицинское обслуживание	
17.	Bilim olish huquqi	Право на образование	
18.	Ilmiy ijod erkinligi	Свобода научного творчества	
19.	Texnikaviy ijod erkinligi	Свобода технического творчества	
20.	Madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlari	Право на пользование культурными достижениями	
21.	Iqtisodiy islohotlar	Экономические преобразования	
22.	Bozor iqtisodiyoti	Рыночные отношения	
23.	Tadbirkorlik	Предпринимательство	
24.	Mulkchilik shakllari	Формы собственности	
25.	Iqtisodiy bilim	Экономическое знание	
26.	Iqtisodiy ta'lim	Экономическое обучение	
27.	Ijtimoiy ta'lim	Социальное обучение	
28.	Mulk	Собственность	
29.	Iqtisodiy hudud	Экономическая территориальность	
30.	Ijtimoiy yordam	Социальная помощь	

